

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“Himoyaga ruxsat etildi”

Magistratura bo'limi boshlig'i

dotsent G.A.Doliyev

“ ” 2019-yil



5A120102 – Lingvistika: (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti  
Eraliyeva Dilnoza Oybek qizining

“TA'LIMDA TIL KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH VA  
RIVOJLANTIRISH”

mavzusidagi

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYA  
ISHI**

O'zbek tili kafedra mudiri:  N.Uluqov, f.f.d., professor

MDI rahbari:  M. Sobirova, p.f.n, dotsent

Namangan – 2019

## **Mundarija:**

Kirish.....	3
<b>1-bob. Hozirgi zamon o'qituvchisi kompetentligi masalasi – pedagogik muammo sifatida:</b>	
1.1. Kompetensiyalarning fan va turmushga kirib kelishi.....	10
1.2. Hozirgi zamon o'qituvchisi kompetentligiga qo'yiladigan talablar.....	25
1-bob bo'yicha xulosa.....	40
<b>2-bob. Til ta'limiga oid kompetetsiyalarning o'ziga xosligi:</b>	
2.1. Til ta'limiga kompetensiyaviy yondashuv.....	42
2.2. Ona tili o'qituvchilarining kompetentligi darajasiga qo'yiladigan talablar.....	56
2-bob bo'yicha xulosa.....	60
<b>3-bob. O'quvchilarning til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish:</b>	
3.1. Ona tili o'quv fani bo'yicha shakllantirilishi zarur bo'lgan tayanch va fanga oid kompetensiyalar.....	62
3.2. Til kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar.....	68
3 -bob bo'yicha xulosa.....	86
<b>Umumiylar.....</b>	88
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	92

## KIRISH

**Mavzuning asoslanishi va dolzarbliji.** Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi ta’lim sohasida muhim qadam bo’ldi. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darjasи fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog’liqdir. Fan va madaniyatning rivojlanishi esa ta’lim-tarbiya ishlarining qay yo’sinda olib borilishidan kelib chiqadi. Shu bois mamlakatimizning istiqlol yo’lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, demografik va boshqa milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat olib borish<sup>1</sup>, yoshlarning zamon talablari bilan uyg’unlashtirish asosida<sup>2</sup> jahon andozalari darajasiga chiqarishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Fan-texnika taraqqiy etgan, axborot almashinuvi kuchaygan tezkor zamonda mamlakatimizning barcha sohalarida bo’lgani kabi ta’lim tizimida ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Fan-texnika asri va jadal taraqqiy etayotgan hayot o’quvchilarda o’quv predmetlari bo’yicha faqatgina bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lishning o’zi yetarli emasligini ko’rsatmoqda. Ta’lim jarayoniga o’quvchilar egallagan bilim, ko’nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo’llashga o’rgatadigan kopmetensiaviy yondoshuvga asoslangan DTSlarni yaratish va ta’lim jarayoniga qo’llash zaruriyati yuzaga keldi.

“Competence” so’zi “to compete” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma’noni bildiradi. So’zma-so’z tarjima qilinsa, “musobaqalashishga layoqatlilik” ma’nosida keladi. Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, *kopmetensiya*, *kompetentlilik* o’ta murakkab, ko’p qismli, ko’pgina fanlar uchun mushtarak

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. Иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисining тўққизинчى сессиясидаги маъруза, 2002 йил 29 август - Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё, ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т.: 2003.

bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko'ra, ham ma'no, mantiq mundarijasi jihatidan turli-tuman. Atamaning mohiyati shuningdek, "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xossa", xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflandi va umumiy holatda quyidagi tayanch kopmetensiyalar ishlab chiqilib tasdiqlandi:

- a) o'zini-o'zi rivojlantirish kopmetensiyasi;
- b) axborot bilan ishslash kopmetensiyasi;
- c) ijtimoiy faol fuqarolik kopmetensiyasi;
- d) milliy va umummadaniy kopmetensiya;
- e) matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Ona tilidan dastlabki loyihada fanga oid kopmetensiyalar sifatida quyidagilar ko'rsatildi. Mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyasi

Nutqiy (lingvistik) kompetensiya

Sotsiolingvistik kompetensiya

Pragmatik kompetensiya

Inson tafakkuri bolalikdan shakllanadi. Shuning uchun maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni kontseptual asosda, yagona tizim va aniq chora-tadbirlar ko'lamida, barcha bosqichlarda va hududlarda muntazam va uzluksiz olib borish zarur.

Hadisi shariflarda "**Kishining zebu ziynati uning tilidadir**" deyiladi. Qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o'z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Chunki til millatning kelajagi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning quyidagi so'zlarida ulkan ma'no bor: "**Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili – millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan**

*judo bo'lishi muqarrar*<sup>3</sup> Har bir xalqning xalqligini, mavjudligini ta'minlovchi va namoyon etuvchi ma'naviy-ma'rifiy xazina tildir. Demak, ona tili – millatning o'zligini ko'rsatuvchi eng muhim, eng ulug', eng muqaddas vosita.

O'quvchilarni milliy istiqlol, milliy qadriyatlargacha hurmat ruhida tarbiyalashda barcha fanlar qatori ona tili ham katta imkoniyatlarga ega. "Ona tili - milliy ma'naviyat va mafkura, milliy ruh, madaniyat va qadriyatlarning ulkan xazinasi", "Ona tili-millat tafakkurini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va ifodalovchi eng asosiy vosita"jumlalari yangi dastur va darsliklar kontseptual asoslarining dastlabki bandlari hisoblanadi.<sup>4</sup>

Ta'lim bo'g'inlarida davlat tili sanalgan ona tilining alohida o'rni bor. O'zbek tili ona tilimizning juda boy, ma'nodor, jozibali va rang-barangligi Navoiy zamonidayoq isbotlangan.

Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek, qadriyatlarimiz, e'tiqod va tafakkurimiz, urf-odat va an'analarimiz, boy ilmiy, tarixiy merosimizni asrabavaylash va chuqur o'rganish orqaligina ma'naviy olamimizni yuksaltirishimiz mumkin bo'ladi.<sup>5</sup>

Ona tili hayotni bilish, yoshlarda axloqiy tushunchalarni shakllantirish, yosh avlodning shaxsiy sifatlarini tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ona tili mazkur tilning egasi bo'lgan xalqning tarixi, madaniyati, urf-odati, adabiyoti hamda san'atini bilish, o'rganish vositasi hamdir. Ona tili o'quv fanlarining asosidir. Ona tilini o'rganish juda katta ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatga ega. Shaxsning tarbiyalanganlik darajasi ham tilni bilish bilan belgilanadi. Jamiyat rivojlangan sari ona tili o'qitishning maqsad va vazifalari ham takomillashib boradi. Ona tili ta'limi o'z oldiga yoshlarda mustaqil va ijodiy fikrlash, og'zaki hamda yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularda til sezgirligini tarbiyalash maqsadini qo'yadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimidagi fanlar orasida milliy mafkura g'oyalarini

<sup>3</sup> И.Каримов, "Миллий истиқтол гояси: асосий тушунча ва тамойиллар", Тошкент, 2000, 6.45

<sup>4</sup> Qarang."Ta'lim taraqqiyoti", 1999, 1-maxsus son, 64-bet.

<sup>5</sup> Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – 2009 йилнинг асосий якунлари ва 2010 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иктисодий

o'quvchilarga singdirishda o'zbek xalqi milliy ruhini o'zida mujassam etgan "Ona tili" fanining alohida o'rni bor.

Ma'lumki, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishdan maqsad, ularda tez o'zgarayotgan dunyoda o'z o'rnini topish, jamiyatda qiynalmasdan yashashi uchun zarur bo'lган hayotiy ko'nikmalarни shakllantirishdan iboratdir.

Ta'lim berish jarayonida har bir pedagog qanday qilib, qanday usullar bilan dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish mumkin degan haqli savol tug'iladi.

Davlat ta'lim standartlari talablariga asoslangan holda mustaqil O'zbekistonning yosh avlodiga ta'lim-tarbiya berish o'qituvchilarga ma'suliyatlari vazifalarni yuklaydi. Hozirgi vaqtida o'qituvchilar oldida fan asoslarini o'qitishning ilmiy-nazariy saviyasini ko'tarish, o'qitish usullarini takomillashtirish natijasida dars samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilashdek ishlar turibdi va bu vazifalarni bajarishda yangi pedagogik izlanish natijalarini amaliyotda joriy qilish dolzarb muammolardan biridir. Xususan, ona tili fanini o'qitishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish bilan dars o'tilsa, maqsadga mos bo'ladi.

**Muammoning o'r ganilganlik darajasi.** 1960–1970 yillarda tilni o'r ganishga doir dastlabki kompetensiyalar kiritila boshlandi. Bunda D. Xayms tomonidan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi kiritiladi. Kompetensiya/kompetentlik kategoriylarini tilni, ayniqsa, ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o'r ganish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va muloqotni o'r ganishda foydalanila boshlandi. Tilshunos va metodist olimlar H. Ne'matov, A. G'ulomov asarlarida kompetensiya tushunchasining mazmuni ishlab chiqildi. 1990 va keyingi yillarda kompetensiyaviy yondoshuv, kasbiy ta'limga, umumta'lim fanlariga va boshqa yo'naliishlarda qo'llanila boshlandi. Bu sohadagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida H. Ne'matov, A. G'ulovov, A.Nurmonov, Sh.Iskandarova,

S.Boymirzayeva, N.Bekmuxamedova kabi ko'plab mutaxassislar tomonidan amalga oshirilmoqda.

**Tadqiqotning maqsadi.** Tadqiqotning asosiy maqsadi ta'lilda til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammosini yoritib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Tadqiqot oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Kompetensiyalarning fan va turmushga kirib kelishini yoritish.
2. Hozirgi zamon o'qituvchisi kompetentligiga qo'yiladigan talablarni yoritish.
3. Til ta'limga oid kopmetensiyalarning o'ziga xosligini aniqlash.
4. Ona tili o'qituvchilarining kompetentligi darajasiga qo'yiladigan talablarni izohlash.
5. O'quvchilarning til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini o'rganish.
6. Ona tili o'quv fani bo'yicha shakllantirilishi zarur bo'lgan tayanch va fanga oid kompetensiyalarini tahlil qilish.
7. Til kopmetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti va materiallari.** Tadqiqotning obyekti o'rta umumta'limga muktablari va akademik litseylar bo'lib, mazkur ta'lim maskanlaridagi mashg'ulot jarayonini tahlilini o'rganish, tahlil qilish ishning predmeti sanaladi.

**Tadqiqotning nazariy asosiy va metodlari.** Magistrlik dissertatsiyasini yozishda jahon va o'zbek tilshunosligidagi va metodikasidagi eng ilg'or fikrlarga, kopmetensiyalarga oid nazariy va amaliy tadqiqotlarga tayanildi hamda ishni bajarish jarayonida umumlashtirish, alohidalash, leksik-semantik tahlil metodlariga asoslanildi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada nominotsion-motivatsion tahlil, tavsifiy tahlil, lug'aviy-ma'noviy tahlil, strukturaviy tahlil, etimologik tahlil,

derivatsion tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Tadqiqotning ilmiy yangiligi ona tiliga oid kopmetensiyalari rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqilganligi bilan xarakterlanadi.

**Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ish materiallaridan oliv o'quv yurtlarining bakalavr yo'nalishida o'tiladigan ona tili o'qitish metodikasi fanlarini o'tishda, magistratura yo'nalishidagi maxsus fanlarni o'qitish metodika, paralingvistika kabi sohalarni o'qitishda foydalanish mumkin.

**Ishning sinovdan o'tishi.** Dissertatsiya Namangan davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi yig'ilishi (2019-yil ...aprel)da muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

**Natijalarining e'lom qilinganligi.** Tadqiqot bo'yicha Namangan davlat universitetida 2018-yilning 27-28-oktabrida "Fan va texnika, ta'lim va texnologiyalarning rivojlantirish istiqbollari" mavzusida o'tkazilgan **xalqaro** ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida "Kompetentli yondashuv - ta'lim-tarbiya rivojlanishida asosiy omil" nomli; 2018-yilning 12-oktabrida "Xalq ta'limi muassasalarida fanlar bo'yicha tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik asoslari: muammo va yechimlar" mavzusidagi hududiy ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida "Ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuv" nomli, "Boshlang'ich ta'limga zamonaviy yondashuv: muammo va yechimlar" mavzusida **respublika** miqyosida o'tkazilgan ilmiy konferensiyada "Kompetensiyalarga yo'naltirilgan topshiriqlar" nomli, Namangan davlat universitetida "Ilm ummonidan qatralar" nomli respublika oliv o'quv yurtlari magistrleri va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalar to'plami **respublika** miqyosida "Kompetensiya va uning turlarini ifodalovchi terminlar" mavzusida, 2019-yiling 26-martda Belorussiyada o'tkizilgan **xalqaro** konferensiyada "The importance of students' formation and development native language classes" mavzusida tadqiqot mavzuimga doir jami 5 ta maqola e'lom qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi.** Dissertatsiya hajman 94 bet bo'lib, kirish, "Hozirgi zamon o'qituvchisi kompetentligi masalasi - pedagogik muammo sifatida", "Til ta'limiga oid kompetensiyalarning o'ziga xosligi", "O'quvchilarning til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish" kabi uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

# **1-BOB. HOZIRGI ZAMON O'QITUVCHISI KOMPETENTLIGI**

## **MASALASI – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

### **1.1. Kompetensiyalarning fan va turmushga kirib kelishi**

Kompetensiyalarning mazmuni va mohiyatini o'rganishdan oldin, uning fan va turmushga kirib kelishning qisqacha tarixi bilan tanishaylik.

**Birinchi bosqich** – 1960–1970- yillar.

Tilni o'rganishga doir dastlabki kompetensiyalar kiritila boshlandi. Bunda D.Xayms tomonidan “kommunikativ kompetensiya” tushunchasi kiritiladi.

**Ikkinci bosqich** – 1970–1990-yillar.

Kompetensiya/kompetentlik kategoriylarini tilni, ayniqsa, ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o'rganish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va muloqotni o'rganishda foydalana boshlandi. Bu paytda “ijtimoiy kompetensiya/kompetentlik” tushunchasining mazmuni ishlab chiqiladi.

**Uchinchi bosqich** – 1990 va keyingi yillarda kompetensiyaviy yondoshuv, kasbiy ta'limga, umumta'lim fanlariga va boshqa yo'naliishlarda qo'llanila boshlandi .

O'zbekistonda dastlab Birinchi Prezidentimiz farmoniga muvofiq, **chet tillarni o'qitishni** takomillashtirishga qaratilgan 2012-yil 12-dekabr farmoniga muvofiq ilk bor kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan DTS ishlab chiqilib, 2013-2014 o'quv yilidan bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish boshlandi.

Kompetensiya bo'lisi uchun uning strukturasi qanday bo'lisi kerak degan savol tug'ilishi tabiiy. Kompetensyaning struktura komponentlari ro'yxati:

- a) kompetensyaning nomi;
- b) kompetensiya tili va uning umumiyligi ketma-ketligidagi o'rni (tayanch, umumpredmet, predmet) ;
- c) kompetensiyalar kiritiladigan, real faoliyat ko'rsatadigan obyektlar doirasi;

d) kompetensiyaning ijtimoiy-amaliy bog'liqligi va ahamiyati (u jamiyat uchun nima sababdan kerak?);

kompetensiyaning shaxsga nisbatan ahamiyati( nima sababdan o'quvchi kompetent bo'lishi kerak?);

e) real obyektlar doirasiga oid bilimlari, ko'nikmalari va malakalari;

f) mazkur kompetensiya doirasida o'quvchining faoliyat ko'rsatishi uchun kerak bo'ladigan minimal tajribasi (o'qitish bosqichlari bo'yicha);

g) indikatorlar – o'quvchi kompetentligi (o'qitish bosqichlari bo'yicha) darajasini aniqlash uchun o'quv va nazorat - baholash topshiriqlari namunalari, misollari.

### **Qanday kompetensiyalarni tayanch kompetensiyalar deb olish kerak?**

Kompetensiyalardan, ta'lif kompetensiyalarni farqlash lozim. Ta'lif kompetensiyasi o'quvchini kelajakdagi to'la qonli hayotidagi faoliyatini modellashtiradi. Masalan, fuqaro ma'lum bir yoshga yetgunga qadar ba'zi bir kompetensiyalarni tatbiq eta olmaydi. Lekin bu degani, ularni o'quvchida shakllantirilmaydi, degani emas. Bu holatda biz ta'lif kompetensiyasi haqida gapiramiz. Masalan, o'quvchi matabda fuqorolik kompetensiyasini o'zlashtirsa-da, uni to'la qonli ravishda matabni tugatganidan so'ng ishlatadi. Shunga ko'ra bunday kompetensiyalar, o'qish davrida ta'lif kompetensiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tildagi tayanch kompetensiyalarning dunyo bo'yicha yagona ro'yxati yo'q. Jumladan, gender tilni tahlil qilishda bir qancha yo'nalishlarga murojaat qiladi. Bular:

a) sotsiolingvistika – tilning ijtimoiy mohiyati, ijtimoiy vazifasi, tilga sotsial omillarning ta'siri, til taraqqiyotida til siyosatining roli kabi qator masalalarni o'rganadi<sup>6</sup>;

b) psixolingvistika – nutqning vujudga kelish mexanizmini, bolalar nutqining shakllanishi jarayonini, nutqning axborot tashish funksiyasi kabi

---

<sup>6</sup> А.Нурмонов, Б.Йўлдошев. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Т. “Шарқ”, 2001, 70-бет.

masalalarni o'rganadi<sup>7</sup>;

e) etnolingvistika – tilning shu til egasi bo'lgan etnos madaniyatiga bo'lgan munosabatini, tilning funksiyalanish va rivojlanish jarayonida etnomadaniyat, etnopsixologik omillar o'rtaсидаги aloqani o'rganadi<sup>8</sup>;

f) neyrolingvistika – nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekanligi, miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta'siri kabi masalalarni o'rganadi<sup>9</sup>;

g) mentalingvistika – obyektiv olam qismlari va uning til tasavvurlari o'rtaсидаги munosabat o'rganiladi<sup>10</sup>. Chunki har bir mamlakatning yoki regionning o'z an'analari, mentaliteti va o'ziga xos talablari bor. Kompetensiya – bu jamiyatning o'z fuqarolariga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi bo'lib, ularning ro'yxati ma'lum bir mamlakatdagi yoki regiondagи ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Bunday kelishuvga har doim ham erishib bo'lmaydi. Masalan, Shvetsariyaning va Amerika Qo'shma Shtatlarining iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda ta'lim statistikasi Milliy institutining "Tayanch kompetensiyalarini tanlash va aniqlash" nomli loyihasida tayanch kompetensiyalarini qat'iy ravishda aniqlab olishning imkoniyati bo'lмаган. Shunga ko'ra kompetensiyalarining Yevropa varianti va Rossiya variantlarini qaraylik.

"Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar" nomli Yevropa kengashi simpoziumida belgilangan tayanch kompetensiyalarini o'rganishi kerak:

- tajribadan foydali biror narsani chiqarib olishi;
- o'z bilimlari orasidagi o'zaro aloqani tashkil qilish va ularni tartiblashtirish;
- o'zining shaxsiy o'rganish usullarini tashkil qilish(o'rnatish);
- muammolarni yecha olish.

### Izlash:

- mustaqil bilim olish bilan shug'ullanish;
- turli ma'lumotlar bazasini izlash;

<sup>7</sup> Ўша асар. 68-бет.

<sup>8</sup> А.Нурмонов, Ш.Искандарова. Тилшунослик назарияси. – т., "Фан", 2008, 158-бет.

<sup>9</sup> Ўша асар. 165-бет.

- tevarak atrofdan surishtirish;
- ekspertdan maslahat olish;
- axborot olish;
- hujjatlar bilan ishslash va ularni turkumlash (klassifikatsiyalash).

### **O'yish:**

- o'tgan va hozirgi voqealar orasidagi o'zaro bog'liqlikni topmoq;
- jamiyat rivojlanishing u yoki bu aspektiga tanqidiy yondoshmoq;
- murakkablik va o'ziga bo'lgan ishonch yo'qolishiga qarshi turmoq;
- bahslashuvlarda o'z pozitsiyasini egallash va shaxsiy nuqtayi nazariga ega bo'lmoq;
- salomatlik, iste'mol qilish, hamda tasviriy san'at va adabiy asarlarini baholay bilish.

### **Hamkorlik qilish:**

- guruhda ishslash va hamkorlik qila olish;
- qarorlar qabul qilish anglashilmovchilik va janjallarni bartaraf etish;
- kelisha olish;
- shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish.

### **Ishga kirishish:**

- loyiada qatnashish;
- javobgarlikni olish;
- guruhga yoki jamoaga kirish hamda o'z hissasini qo'shish;
- hamkor ekanligini isbotlash;
- o'z ishini tashkil qila bilish;
- hisoblash va modellashtirish asboblaridan foydalana bilish, ko'nikish;
- yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish;
- tez o'zgarishlar oldida moslashuvchanligini isbotlash;
- yangi yechimlarni to'la bilish.

### **Tayanch kompetensiyalarning Rossiya varianti:**

- Qadr-qimmat, e'tiqod kompetensiyasi.

<sup>10</sup> Ўша асап. 164-бет.

- Umummadaniy kompetensiyalar.
- O’quv-o’rganish kompetensiyasi .
- Axborot kompetensiyasi.
- Kommunikativ kompetensiya.
- Ijtimoiy-mehnat kompetensiyasi .
- Shaxsni takomillashtirish kompetensiyasi.

Kompetentlik, kompetensiyalarni qo’llay olishda ega bo’lishi kerak bo’lgan minimal tajribasi bo’lishni taqozo etadi. Bu haqda o’quvchining tayyorgarligiga qo’yiladigan talablarni shakllantirishda hamda o’quv jarayoni va darsliklarni loyihalashda esdan chiqarmaslik kerak.

O’qitishda ularning roli va o’rnini analiz qilish asosida ajratib olingan kompetensiyalarning asosiy funksiyalarini sanab o’tamiz:

- kundalik hayotda yashash uchun tayyor bo’ladigan yosh fuqarolarga qo’yiladigan ijtimoiy talabning aks etishi;
- bilim, ko’nikma va malakalarini hamda faoliyat usullarini kompleks holda maqsadli qo’llashi uchun atrof muhitdan real obyektlarni ko’rsatishi;
- turli o’quv predmetlari va ta’lim sohalari mazmunining tarkibiy qismi bo’lishi;
- konkret masalalarni yechishda nazariy bilimlarni amaliyotda foydalanish bilan bog’lashi.

Kompetensiyalar qanday ketma-ketlikda bo’lishi kerak?

Ma’lumki, ba’zi kompetensiyalar, boshqalariga nisbatan umumiyligi yoki ahamiyatliroq bo’ladi. Shunga ko’ra ularni uchta darajaga bo’lish mumkin:

- 1) *tayanch kompetensiyalar* – ta’lim mazmunining umumiyligi (metapredmet) qismiga tegishli;
- 2) *umumpredmet kompetensiyalari* – ma’lum doiraga kiruvchi o’quv predmetlari va ta’lim sohalariga tegishli;
- 3) *predmetga oid kompetensiyalar* – oldingi ikkitaga nisbatan xususiy hisoblanib o’quv predmeti doirasida shakllantiriladi.

Tayanch kompetensiyalar har safar ta’limning ma’lum bir bosqichi va

belgilangan o'quv predmeti uchun konkretlashtiriladi. Masalan, predmet kompetensiyasi hisoblangan tarix fani bo'yicha, har qanday tarixiy voqeada turli tomonlarning manfaatlari kurashini ajratib olish qobiliyati yotadi.

Keltirilgan to'plam me'yoriy xujjatlar, o'quv va metodik adabiyotlar, Shuningdek, o'quvchilarning umumtayyorgarligini o'lchash, shu bilan birga ularning kreativ tayyorgarligi darajasini o'lchaydigan xujjatlarni loyihalash va yoritish uchun xarakterlovchi to'plamni belgilaydi.

Didaktika va metodikalarda tayanch, umumpredmet va predmet kompetensiyalari mazmunini aks ettirish uchun ularni maxsus texnologiya asosida konstruktsiyani tuzish kerak.

O'quv predmetining tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga qo'shishi mumkin bo'lган hissasi aniqlanadi. So'ngra predmet kompetensiyalarini tuzish uchun o'quv predmetining tizimlashtirilgan komponentining minimal ro'yxati tuziladi:

1) *Obyektiv borliq obyektlari* (tabiiy, madaniy, ijtimoiy hodisalar, texnik qurilmalar, manba-asarlar va h.k.). Fan yoki faoliyat sohalaridan o'quv predmeti uchun real predmet va hodisalarni ajratib olinadi. Masalan, bular sifatida - ona tilida, tovush, so'z va h.k. dan tuzilgan og'zaki nutqni real jarayon deb, asarlardagi matnni moddiy obyektlar deb olish mumkin. Fizikada asosiy fizik hodisalar, moddaning turli holatlari, fundamental maydonlar va o'zaro ta'sirlar, elementar zarralar; kimyoda – modda va ularning aylanishi; tarixda – tarixiy ahamiyatga ega bo'lган predmetlar, voqealar va h.k.

2) *O'rganilayotgan borliq haqidagi umummadaniy bilimlar*: Insoniyat tomonidan tegishli obyektga nisbatan ishlab chiqilgan qoidalar, qonunlar, nazariyalar, tushunchalar, qarama-qarshiliklar, madaniy ahamiyatga ega faktlar, g'oyalar, gipotezalar, muammolar, texnologiyalar, alternativ yondoshuvlar va boshqa bilimlar.

3) *Umumiylar va umumo'quv ko'nikmalar, malakalar, faoliyat turlari*. O'quv predmetiga tegishli va umumpredmet ahamiyatiga ega bo'lган konkret

ko'nikmalar, malakalar, faoliyat turlarining guruhlar bo'yicha tizimlashtirilgan ro'yxati keltiriladi.

Bolalarda predmetlararo kompetensiyalarni ta'lim bosqichlarida shakllantirish uchun tegishli predmet kompetensiyasining o'sish dinamikasi yozib chiqiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishni dars jarayoniga kiritish uchun ularni faoliyat shaklida berish kerak.

Yuqorida keltirilgan tajribalar asosida quyidagi tayanch kompetensiyalar ishlab chiqildi va tasdiqlandi:

**Kommunikativ kompetensiya** – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi** – mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab to'a olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi** – doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi** – jamiyatda bo'layotgan voqealari, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya** – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish,

badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi** – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdarligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Umumta'lim muassasalarida o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirish, dars va ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etish.

Birinchidan, tizimda yuqori malakali pedagoglar kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini uzlucksiz va sifatli ravishda oshirib borishga;

Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida o'qituvchilar kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlariga asoslangan uzlucksiz sifatli metodik xizmatni tashkil etishga;

Uchinchidan, mavjud fan xonalari, o'quv laboratoriya asbob-uskunalar, jihozlar va kompyuter texnikasidan, umuman olganda, barcha shart-sharoitlardan samarali foydalanishga;

To'rtinchidan, sifatli ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda, oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish institutlari va umumta'lim maktablari hamkorligida ilg'or ish tajribalarini amaliyotga joriy etishga;

Eng asosiysi, xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi va mahoratiga bevosita bog'liqdir.

Zamonaviy o'qituvchi o'zining bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo'llay olishi- kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir. Jumladan,

Dunyo va mamlakatda ta'lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, xalq ta'limi tizimida o'quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta'minlashga, uzviylik va uzlucksizligiga amal qilish;

– Kompyuter, axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish va

pedagogik faoliyatida qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish.

– O'quvchilarning ruhiy, jismoniy rivojlanishi va yosh xususiyatlari qonuniyatlarini bilishi, ta'lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanish.

– O'quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish.

– O'quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida bolalar hayoti va sog'ligi, texnik hamda axborot havfsizligini ta'minlashga tayyor bo'lish.

– Dars jarayonida mediaresurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda mediamadaniyat me'yorlariga amal qilish. O'qituvchilar umumta'limga fanlarini o'qitishda darsning mazmuniga mediamadaniyat va mediamadaniyat tushunchalarini singdirib borishi, ularga axborot texnologiyalarining cheksiz ijobjiy imkoniyalari, afzalliklari bilan bir qatorda salbiy ta'siri va oqibatlaridan o'zini himoyalash yo'llarini ham o'rgatish lozim. Bunda o'quvchilarda axborot bilan ishslash kompetensiyasini quyidagilarni inobatga olgan holda rivojlantirish maqsadga muvofiq;

– O'quvchilarda axborot texnologiyalarining hayot va jamiyatdagi roli, imkoniyatlari va qo'llash doirasi, Shuningdek, uning salbiy oqibatlari va ulardan himoyalanish haqidagi tushunchalarni shakllantirish;

– Ta'lim olish va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida elektron resurslar, o'quv dasturlari va boshqa o'quv-metodik maxsulotlarning afzalliklarini anglash va qo'llashni o'rgatish;

– Masofadan ma'lumot almashish lokal va global tarmoqda ma'lumot qidirishni va bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatardan saqlanish hamda mediamadaniyat qoidalariga rioya qilish. Yoshlarimizda yangi zamonga mos hayotiy mo'ljalilarini belgilashda chalg'imaslik, axborot makonida o'zlariga kerakli manzilni aql-idrok, halollik va mexnatsevarlik bilan topish, vatan taraqqiyoti va yurt faravonligiga o'z hissasini qo'shish kabi fazilatlarni

tarbiyalash biz pedagoglarning burchimizdir.

Filologik yo'nalishdagi oliy ta'lif muassasalarida fikr ifodalash vositalarining barcha shakllarini kengroq va chuqurroq berish, ayniqsa sintaktik sinonimika – so'z birikmalar hamda sodda va qo'shma gaplar sinonimikasi bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish, lisoniy hodisalarning mantiqiy asoslarini tushuntirish, gap bo'laklarining o'rni, so'zlarning o'zaro bog'lanishini o'rgatish orqali rusiyabon talabalarda o'zbek tilini o'z ona tili va boshqa tillar bilan qiyoslay olish, matnlarni turli tillarga mustaqil tarjima qila olish ko'nikmalarini hosil qildirishga qaratilishi maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Ushbu nazariy bilimlar hamda mashqlar, adabiy o'qish materiallari orqali o'zbek tilidagi turli nutq uslublari haqida keng ma'lumot berishni rejalashtirish mumkin.

Nofilologik oliy o'quv yurtlari ijtimoiy, tibbiyat, qishloq xo'jaligi, texnik, madaniyat va san'at kabi yirik yo'nalishlarga bo'linadi. Ushbu oliy o'quv yurtlarining rus guruhlarida o'zbek tilini o'rgatishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad talabalarda o'z mutaxassisligi sohasida davlat tilidagi kommunikativ nutqiy malakani shakllantirish, mutaxassisligi bo'yicha ilmiy maqolalarni, ilmiy asarlarni o'qib tushunish, ularga nisbatan fikr bildirish, uzviylik uchun zarur materialni rus tilidan o'zbek tiliga, yoki aksincha, o'zbek tilidan rus tiliga mazmunan to'g'ri tarjima qila olishni o'rgatishdan iborat. Bu talabaga o'zbek tilidan o'z kasbi doirasida erkin va mustaqil foydalanish imkonini beradi.

Nofilologik oliy ta'lif muassasalarida o'zbek tili ta'limi mutaxassislikka oid asar yoki ilmiy maqola tahlili asosida makon va zamon, sabab va oqibat, maqsad va natija, shart va to'siqsizlik ma'nolarining ifodalanishi, fikrni dalillash, asoslash, xulosalash, o'zgalar fikrini aynan yoki o'zlashtirib ifodalash, sitata va epigraflarni qo'llash, havolalar berish yuzasidan amaliy ishlar olib borish, monologik tarzda taqdimot o'tkazish kabi ish turlaridan foydalangan holda tashkil etish respublikamizning davlat tilida erkin faoliyat olib bora oladigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar yetkazish ishiga samarali ta'sir etgan bo'lar edi.

Har ikki yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida ham o'zbek tili mashg'ulotlarida ilmiy va ilmiy-ommabop uslubda yozilgan matnlar tahliliga keng o'rinni berish, talabalarga ilmiy ma'ruza tayyorlatish, ilmiy maqolalarni, ilmiy asarlardan parchalarni tarjima qildirish kabi ish turlari bilan amaliy shug'ullantirib borish zarur. Talabalarga ayniqsa ilmiy, publisistik va rasmiy-idoraviy uslubni amaliy o'rgatish, buning uchun ularni ixtisosliklari bo'yicha matnlarda faol qo'llanadigan nutqiy qoliplar, ularning sintaktik sinonimik variantlari bilan tanishtirish, ularni matbuotdagi maqolalar, radio va teleaxborotlarni tushuna olishga, ulardan ish jarayonida foydalana olishga, o'z fikrlarini tengdoshlari, guruh, fakultet va yanada kengroq doiralarda erkin bayon qila olishga, zarur hollarda intervyu bera olishga, o'zbekcha monologik nutq so'zlay olishga o'rgatish zarur, deb o'ylaymiz. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida rasmiy uslub bo'yicha talabalarga bevosita mutaxassisligiga oid barcha ichki hujjatlarni: huquqiy, iqtisodiy-tijorat yoki diplomatik xatlarni yozishni, rasmiy-idoraviy muloqot etiketini o'rgatish maqsadga muvofiq.

O'zbek tilidan takomillashtirilgan va xalqaro darajalarga muvofiqlashtirilib, loyiha sifatida taqdim qilingan davlat ta'lim standartlarida ishchi guruhi tomonidan oliy ta'lim bakalavriat bosqichi bitiruvchilari uchun S1 daraja talablari belgilangan bo'lib, ushbu talablar bo'yicha bitiruvchi talaba:

1. O'zbek tilida so'z va iboralarning o'zaro sinonimikasini.
2. O'zbek tilida sodda va qo'shma gaplar sinonimikasini
3. Matn, matn qismlarini bog'lovchi vositalarni.
4. Ilmiy nutq uslubiga xos lisoniy vositalarni.
5. Ilmiy-uslubiy ishlar turlarini ( o'quv dasturi, qo'llanma, darslik, lug'at va risola).
6. Ilmiy tadqiqot ishlari turlarini (ilmiy maqola, tezis, annotasiya, taqriz, BMI, magistrlik dissertasiyasi).
7. Ixtisoslikka oid ichki hujjatlarni bilishi.
8. Yozish amali bo'yicha o'zbek tilida: insho, esse, ilmiy koferensiya uchun ma'ruza va boshqa yozma to'shiriqlarni yoza olish.

9. Ilmiy maqola va tezislarni yoza olish.
10. Bitiruv malakaviy ishi va uning rezyumesini yoza olish.
11. Ma'muriy ish qog'ozlari, mutaxassisligiga oid xatlar va ichki hujjatlarni (hisobotlar, ma'lumotnomalar, anketa-so'rovnomalar, tahlillar) yoza olish va elektron aylanma hujjatlar bilan ishlay olish malakalariga ega bo'lishi talab etiladi. S2 darajada esa o'zbek tili ixtisoslik yo'nalishi bo'lган bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilari va barcha sohalardagi ilmiy-pedagogik kadrlar malakalarigan qo'yiladigan quyidagi talablar belgilangan.
12. Ilmiy, publisistik uslublarda maqolalar yoza olish.
13. O'z mutaxassislik sohasiga oid ilmiy-uslubiy asarlar, maqolalar, ma'ruzalarga taqrizlar yoza olish.
14. Barcha turdag'i ma'muriy ish qog'ozlari, mutaxassisligiga oid ichki hujjatlarni yoza olish.
15. Grant, loyihalar, BMI va dissertasiyalar uchun asosnomalar va bajarilgan ishlar bo'yicha hisobotlar yoza olish.
16. O'z mutaxassislik sohasiga oid va sohasidan tashqari turli ijtimoiy mavzulardagi o'quv-uslubiy adabiyotlarga annotasiyalar yozish.

Ta'lim insonning(ta'lim oluvchining) hayotiy tajribalarini boyitish orqali rivojlantirish bo'lib, u jarayon yoki oqibat natija sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan pedagogika ta'lim to'g'risidagi fan inson hayotiy tajribalarini boyitish orqali rivojlantirishdir. Shaxsning strukturaviy ierarxiyasida ta'lim va shaxs hayotiy tajribasi rivojlanishini quyidagi kontekstda sxematik ifoda etish mumkin:

O'rganish – bu shaxs tajribasining rivojlanishi bo'lib, u o'z navbatida quyidagi unsurlardan tarkib topadi:

1. Individual bilim
2. Ma'lum bir faoliyatni muvafaqqiyatli omilkorlik, mohirlik bilan eplay olishlik, qila olishlik qobiliyatlari-kompetensiya.
3. Malaka
4. Odatlar


Kompetensiya – nafaqat olingan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasi, balki olingan nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish darajasidir.

Kompetensiya – ma'lum bir faoliyatni muvafaqqiyatli omilkorlik, mohirlik bilan eplay olishlik, qila olishlik qobiliyatları bo'lib, u egallangan nazariy va amaliy bilimlar, malakalar va ko'nikmalar asosida namoyon bo'ladi.

Kompetensiya shaxsning murakab ta'limiy strukturasi bo'lib, u o'zida shaxsning sensor, subsensor va ekstrasensor, sensomotor, ideo dinamik (ideomotor, ideosensor, ideoemotiv, ideokognitiv) intellektual, irodaviy, kreativ, emotsiyal sifatlarini o'zida jamlaganki, ular faoliyatdan ko'zlangan maqsadga uning o'zgarib boruvchi sharoitida amalga oshuvini ta'minlaydi.

Shunday qilib kompetensiya shaxsning yuksak sifatiy xislati bo'lib, uning shakllanishi ta'liming hal qiluvchi oqibat, natijasi hisoblanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, kompetensiyani quyidagicha sxematik ifoda etish mumkin bo'ladi: (1.1. -chizma)



O'qituvchi kompetensiyasi uning nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakasi, dunyoqarashi, e'tiqodi va barcha shaxsiy individual ijtimoiy psixologik sifatlarining namoyon bo'lqidir.

Ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri, bu – o'qituvchining o'z fani bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lqidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo'ladi.

Bular:

- ilmiy bilish;
- gnoseologik bilish;
- pedagogik faoliyatni epchillik, omilkorlik, mohirlik bilan bajara olish;
- har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy kreativ yondashish;
- ta'limiy, tarbiyaviy ta'sir jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish;
- o'zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini, o'rganish va ichki psixologik zahirasidan samarali foydalanish orqali o'zini muttasil rivojlantirish.
- jamiyat va insonlarga, tabiatga borliqqa ijobiy emotsional munosabatda bo'lish ijobiy pozitiv fikrlashga o'tish tajribasidan iborat.

Zamonaviy o'qituvchining kompetentlik sohasini quyidagicha tasvirlash mumkin: (1.1.-jadval)

<b>Namoyon bo'lishi Kompetentlik turi</b>	<b>Bilim</b>	<b>Munosabat</b>	<b>Amalga oshirish qobiliyati</b>
Kasbiy kompetensiya	Davlat talablari, zamonaviy ehtiyojlar darajasida fanning mazmun	Adolatli va halol yuksak axloqiy xususiyatlarni o'quvchi bilan har tomonlama	O'quv jarayonini zamonaviy pedagogik va psixologik

	mohiyatini tushunadi va anglaydi.	hamkorlik orqali muomalada ro'yobga chiqara olish.	texnologiyalar asosida muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali, kutiladigan natijaga to'liq erishish.
Ijtimoiy kompetensiya	O'quvchilarning individual qobiliyatlarini, vaqtida ilg'ash, his-tuyg'u, emotsional holatlarini tushunish, anglash.	O'quvchilarni va hamkasblarini tog'ri tushunadi, ular haqida noto'g'ri salbiy fikrga bormaslik.	O'quvchilar, hamkasblar, otanonalar jamoatchilik va rahbariyat bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish.
Shaxsiy, individual kompetensiya	O'zining intelektual, kognitiv kuchli tomonlarini va kamchiliklarini ilg'ash, ularni uzluksiz o'rghanish orqali bartaraf qilib borish	O'zining kuchli tomonlarini qadrlaydi va kamchiliklarini tan olis, butun bor kuchini xatolarni tuzatishga o'zini har tomonlama serqirra rivoji uchun ichki va	O'zining nimaga qodirligini tan olgan holda individual psixologik intelektual kognitiv salohiyatini yanada rivojlantirishni davom ettirish

		tashqi omillar, imkoniyatlardan samarali foydalana olish	
--	--	---	--

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarga ona tili va adabiyot fanidan mukammal darajada bilim berilib, ularga ilmiy maqolalar yozish, turli konferensiya va tadbirdarda qatnashganda o’z fikrini erkin bayon qila olishi uchun yetarli bilim va ko’nikmalar beriladi. Talabada tilshunoslik bo’yicha yetarli bilim ko’nikma xosil qilish uchun zamonaviy usllardan foydalangan holda bilim berish lozim. Adabiyotshunoslik, badiiy tahlil masalalari o’rgatilishi kerak. Bo’lajak tilshunos yoki adabiyotshunos ixtiyoriy badiiy asarni erkin tahlil qila olish ko’nikmasiga ega bo’lishi uchun unga bu masalalar haqidagi bilimlar berilishi lozim. Badiiy asarlarni tahlil qila olish, uni erkin tarzda xulosalay olish qobiliyatini shakllantirish, ijodiy fikrlay olish malaka va ko’nikmasini oshirishga yordam beradi.

## **1.2. Hozirgi zamon o’qituvchisi kompetentligiga qo’yiladigan talablar**

**Kompetensiya** iborasi zamonaviy adabiyotda keng qo’llaniladigan termin bo’lib, ta’lim, xodimlarni tanlash, mehnat natijasini baholash, ta’limnmng muvoffaqiyatligi, professional yo’naltirilganlik va shu kabi masalalarni qamrab oladi. Bugungi kunda ma’no nuqtai nazaridan oxirgacha aniqlashtirilmagan deb hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Islom hamkorlik tashkiloti anjumanida “Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo’l” shiori ostida nutq so’zladilar. “Ta’lim va ma’rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo’l” mavzusi 43-sessiya kun tartibining asosiy g’oyasi etib belgilangani chuqur ramziy ma’noga ega. Bu g’oya “Beshikdan qabrgacha ilm izla” degan mashhur hadisga hamohangdir. Ushbu mavzu katta hayotiy tajribaga ega bo’lgan, buyuk davlat

arbobi sifatida uzoqni ko'ra oladigan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan, Alloh u kishini raxmatiga olsin, dunyo xalqlari, o'z xalqi taqdiri, bugungi murakkab sharoitda muqaddas dinimizning ahamiyati haqida chuqur mulohazalar sifatida taklif etilgan edi.”<sup>11</sup>

Biz XXI asr global Shuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib, raqobat asriga aylanib borayotgan davrda yashamoqdamiz. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy g'oya Respublika Konstitutsiyasida ehtirop etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rinnegallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularga keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamenti hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'lim-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

Ma'lumki, 2017-yil fevralda e'lon qilingan “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish to'g'risidagi Harakatlar strategiyasi”da yoshlar masalasiga jiddiy e'tibor qaratilib, unda quyidagi vazifalar belgilab berilgan edi:

– Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish; o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy

<sup>11</sup> Toshqin Daryo.uz .Islom hamkorlik tashkiloti anjumanidan.Toshkent shahri, 2017-yil 20-aprel.

ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalg etish;

– yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo’llab-quvvatlash va ro’yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalg etish; yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish; yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish kabi ustuvor vazifalar belgilab olindi<sup>12</sup>.

Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo’lishga undaydi.”<sup>13</sup>

“Iste’dod” fondining moliyaviy resurslarini shakllantirish manbasi sifatida O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta’lim va tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg’armasi mablag’larini jalg etishdi.<sup>14</sup>

Darhaqiqat, maktab ta’lim tizimida va hayotda ona tilining tutgan o’rni beqiyosdir. Boshlang’ich sinflardanoq ona tili o’qitishda izchillikka rioya qilish zarurdir. O’quvchilarga ona tilidan beriladigan bilimlar mazmuni va mashg’ulot turlari, albatta, ularning aqliy va ruhiy kamolotiga, qabul qilish darajasiga bog’liqdir. Darsliklar tuzilayotganda fanning bo’limlari, ularning umumiyligi va o’ziga xos tomonlariga e’tibor qaratish lozimdir. Aytish mumkinki, Davlat dasturida har bir bo’lim yuzasidan o’zlashtirilishi zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar hajmi belgilab qo’yilgan. Bugungi kun o’qituvchisining vazifasi, ana shu talablarni bilishlari, o’quvchiga jon vujudi bilan har bir fan predmetidan bilimlarni o’rgatishlari lozim.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “O’zbekiston innovatsion

<sup>12</sup> “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш тўғрисидаги Харакатлар стратегияси” // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. – 2017 йил. – №6. 70-модда.

<sup>13</sup> Islom hamkorlik tashkiloti anjumanidan.43-sessiya. Shavkat Mirziyoyev nutqidan.

rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu modul vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyatga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. "Bu – mamlakatimiz jahondagi iqsidodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi" deb takidlab o'tadilar.

1970-yillarda ko'pgina G'arb Yevropa davlatlarida paydo bo'lib, bunda kompetentlik professional tayyorgarlikning yangi yo'nalishini ko'rsatadigan bo'ldi. Kompetentlik termini ta'lim faqatgina individual, texnik yoki tajribiy bilim va qobiliyatni egallash masalalari bilan bog'liq bolib qolmay, balki individ shaxsni keyinchalik rivojlantirishga baza bo'lib, xizmat qila oladigan qobiliyat va ko'nikmalari majmuasini ifoda qiladi. Ammo bu g'oya barcha Yevropa davlatlarida turlicha o'z ifodasini topdi. Masalan, **Germaniyada** 1980-yillardan boshlab, "professional faoliyatda kompetentlik" iborasi boshlang'ich professional tayyorgarlik mabaynida erishilishi shart bo'lган maqsadni ifodalagan. Bu o'qitish kursi o'zaro ogohlilik, texnik kompleks va umumiyl bilim yig'indisidan iborat bo'lib, bu bitiruvchiga kompaniyaning turli ish joylarida ishni davom ettirish imkonini berar edi. Bu umumiyl malaka o'zgarishsiz qolishi mumkin emas, u rivojlanib borishi kerak, chunki individ va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda mexhnat dunyosining talablari va shartlari ham o'zgarib turadi. **Buyuk Britaniyada** "kalit kompetensiyalari" deb yuritiladigan sistema aktiv qo'llanilmoqda. Kalit kompetensiyalari bu muhim maxsus kompetensiyalar bo'lib, ular kundalik hayotdagi professional tayyorgarlikni o'tayotganda qo'llaniladi.

Kalit kompetensiyalari 3 ta funksiyani bajaradi:

- 1) ular talabalarning ta'lim olishga yerdam beradi;
- 2) xodimlar ishga qabul qiluvchilarning talablariga ixchamlik

---

<sup>14</sup> Sof.uz. 22.04.2017. "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror.

bilan javob berish imkonini beradi.

3) hayotlarida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi.

Quyidagi asosiy kompetensiyalarni ajratishadi:

1. Raqamlar orqali oshiriladigan kompetensiyalar-raqamlari ma'lumotlarni yoritish, hisoblarni o'tkazish, yakuniy xulosalarni taqdim etish qobiliyati;

2. Kommunikatsiya- ma'lumotlarni tinglash, o'qish, yozish va qabul qila olish qobiliyati;

3. Informatsion texnologiya-olingenan ma'lumotlarni turli obrazda taqdim etish, masalan , tekst, raqam, diagramma sifatida;

4. Mustaqil ta'lim va mustaqil prezintatsiya-xodimoarni boshqarish, karerani rivojlantirish va ta'lim olish qobiliyati;

5. Insonlar bilan ishlash kollektivda umumiy maqsadlarni ko'zlagan holda faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirishda insonlar bilan ishla olish qobiliyati.

Kalit kompetensiyalari faoliyat mobaynida rivojlanadi, masalan, lavozim majburiyatlarini bajarishda professional tayyorgarlik programmalarini o'tishda, ta'limning turli xil shakllarini egallashda rivojlanadi. Mashxur ingliz psixologi *Dj.Raven* nazariy kompetentlik modelini va shu bilan birga uni baholashda yangi yo'naliishlarni taklif etgan. Ravenning fikriga ko'ra, kompetensiya bu aniq bir vazifani samarali bajarish uchun talab qilinadigan tor doiraviy maxsus bilimlar, fikrlash yo'llarini qamrab oluvchi maxsus qobiliyat hamda o'zining xarakatlari uchun javobgarlikni his etishdir. Ravenning "yuqori kompetensiyalar" deb nomlanuvchi kompetensiyalar to'g'risida so'z yuritadi. Yuqori kompetensiyalar insonlarda yuqori tashabbuskorlik qobiliyatini, o'z maqsadlariga erishish uchun insonlar faoliyatini tashkillashtirish bilan bog'liq bo'lgan tashabbuskorlik qobiliyati, o'z xarakatlarining sotsial oqibatlarini va amal qilishni talab qiladi.

Ravenning qarashlariga muvofiq, kompetentlikning tabiatini shundan iboratki, bunda inson o'zining faoliyatida chuqur qiziqish bilan qaraydi va inson qiymati bilan bir butunlikda namoyon bo'ladi. Komponentlikni baholashda 2 bosqichli model mavjud: avvalambor, inson nima bilan shug'ulanmoqchi

ekaniligi aniqlanadi keyin esa mazkur faoliyatda ular qaysi kompetentlik komponentlarini ko'rsatishi aniqlanadi. Raven ilgari surgan kompetentlik modeli kompetentlik sohalaridan iborat bo'lган o'ziga xos "xarita"ni ifodaydi, ular motivatsiyalik, irodalik va natijalilik komponentlaridan iboratdir. *J.Lebo*ter "kompetensiya injeniriysi" deb nomlangan nazariyani ishlab chiqdi va sistemlashtirdi. Leboterga muvofiq, kompetensiya bilimlarning yig'indisi, ko'nikma, qobiliyat, oldingi va yangi tajribalarning biron bir faoliyatda qo'llanilishi kuzatiladi. Yevropa ta'lim fondining glossariysida bu terminga umumiy mazmun berilgan: prime glossariysi ham shunga o'xhash tushuntirish berib o'tadi.

**Kompetentlik** biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ma'lum bir kasbda qo'llaniladigan standartlar bo'yicha bajara olish qobiliyati.

Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o'quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, mustaqil o'rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan noaniq, ya'ni muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallagan bilimlarni kundalik turmushi jarayonida qo'llay oladigan xususiyatlarni egallahni tarbiyalashdan iboratdir .

O'quvchilarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda, ayniqsa, ona tili va adabiyat faniga oid bilim, ko'nikma va malakalarning dars jarayonida singdirish bilan birqalikda ularda kompetensiyalarni ham shakllantirilishi lozim.

Kompetensiya – muayyan fan bo'yicha o'quvchi egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyatda qo'llay olishdir.

Inson qaysi kasb sohibi bo'lidan qat'iy nazar o'z ishiga, mashg'ulotiga qunt bilan, mehr bilan yondashsa, uning sir asrorini mukammal egallaydi, shu bilan birga o'z-o'zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. O'qituvchi ham

bolalarni sevsasi, tarbiyalasasi, o’zi ham ulg’ayadi, donishmandlik kasb etib boradi. O’qituvchi kelajak farzandini tarbiyalab bilim beradi. Zero kelajak yoshlar qo’lida, ular bizning ertangi kunimiz. Ularda kompetensiyalarini shakllantirilishi, dars davomida o’quvchining faqat tinglovchi yoki eshitganini takrorlavchi “to’ti”ga emas, balki chuqur mushohada yurituvchi, mustaqil fikrini bayon etuvchi, boshqalar bilan o’zaro hamkorlikda ishlovchi, o’zgalar fikrini hurmat qiluvchi, keng dunyoqarashli shaxsga aylantitishda ilg’or pedagogik texnologiyalarning o’rni beqiyosdir. Interfaol metodlarni qo’llab dars o’tish o’quvchilarda har tamonlama ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim va ko’nikma, malakalarini shakllantirish va shu asosida o’quvchilarning ilmiy dunyo-qarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshirish, erkin fikr yurita olishga o’rgatish, ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va ro’yobga chiqarish, o’qituvchi – o’quvchi hamkorligini shakllantirish va nihoyat kafolatlangan yakuniy natijaga erishishishni ta’minlaydi. Interfaol usullarda o’qituvchi o’quvchining mustaqil va mukammal bilim olishi uchun muhit yaratmog’i, fan asoslarini egallashga yo’naltirmog’i, qiziqish, mehr uyg’otish bilan shug’ullanadi. Yangi pedagogik texnoligiya dars o’tish usullari va shakllarini o’zgartirib, ularni xilma-xil qilib, o’quvchini o’quv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi. O’qitishning innovation, nostandard (interfaol)shakllari kompyuterli o’yinlar, intrenetdan foydalanish, elektron darsliklar bilan turli usullarda yangi mavzuga ko’proq e’tibor qaratish, o’qitishni suhbat, o’yin, musobaqa, sahna ko’rinishli, musiqali, savol-javob, aqliy hujum, mushoira sayyohat, intervyu, tijorat, bahs-munozara kabi usullarda dars o’tishni talab qiladi. Darsning borish jarayonida ta’limiy metodlar va usullar almashina boradi. Noan’anaviy darsda o’quvchi shaxsi birinchi o’rinda turadi. O’qituvchi o’quvchi bilan yakkama-yakka, interfaol usulida harakat qiladi.

Ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini tatbiq etishdan ko’zlangan asosiy maqsad:

- ta’lim sifatini yanada yuqori bosqichga ko’tarish;

- o'quvchilarning funktsional savodxonligi, ijodiy, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish;
- o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash;
- fan va amaliyotning yangi yutuqlaridan foydalanib o'quvchilarda faoliyatni motivatsiya qilish ko'nikmasini rivojlantirish;
- o'quvchilarda ma'lumotlarni mustaqil qabul qilish va tahlil qilish, mustaqil ravishda yangi ma'lumotlar bilan boyitish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quvchilarning qobiliyatlarini maksimal ochish hisobiga ularni har tomonlama rivojlantirish;
- kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish<sup>15</sup> hisoblanadi.

Adabiyot boshqa fanlardan farq qilib, san'at sifatida inson ruhiyati, histuyg'ulari, tafakkurini, ma'naviy dunyosini boyitishda, eng kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Interfaol darslarda ijodiyot, his-tuyg'u, sezgi, idrok faollahashi. O'qituvchi obrazlar va tasvirlar, qiziqarli ko'rgazmalar orqali o'quvchini bilishga, tafakkur qilishga, go'zallikni ko'ra olishga ,dunyoga bo'lgan munosabatini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

Ona tili fani ham o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatib, ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga, ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Avvalo, o'qituvchining nutqi sof va chiroyli bo'lmog'i, u ishoralar, qochiriqlar, istiora va xalq maqollari, aforizmlardan o'rinni foydalana olishi, nutq ohangiga, so'z jozibasiga e'tibor berishi kerakligi talab etiladi.

Interfaol darslarni tashkil etishda o'qituvchining notiqlik san'ati, chiroyli so'zlash mahorati o'quvchining diqqatini jalb etadi. O'qituvchi – o'quvchi ruhini, psixologiyasini yaxshi bilishi har bir o'quvchi bilan individual ishlashni, unga nima topshiriq berishni yaxshi bilishi kerak. O'qituvchidan dars o'tishda

---

<sup>15</sup>Ш.Мирзиёев Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Тошкент: Ўзбекистон. – 2017.

ta’lim va tarbiyaning uyg’unligiga, fanlararo bog’liklik, davr yangiliklari, fan yangiliklaridan boxabar bo’lmoqlik, pedagogik ko’nikma va yuksak saviya, ijodkorlik talab etiladi. Shuning uchun ham o’qituvchilik nihoyatda mas’uliyatlari va sharaflari kasb deb ulug’lanadi. ”Dunyo imoratlari ichida eng ulug’i maktab bo’lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o’qituvchilik va murabbiylikdir. O’qituvchi ming-minglab murg’ak qalblarga ezgulik yog’dusini baxsh etadigan, o’z o’quvchilariga haqiqatan ham hayot mifikabini beradigan mo’tabar zotdir”, – deydi I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” asarida.

XX asrda o’qish va yozishni bilmaydigan odamni savodsiz deyishsa, XXI asrda o’rgangan bilimlaridan amaliyatda foydalana olmaydigan odamni savodsiz deyish kerak. Nima sababdan ta’limga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish kerak? Hozirgi kunda o’quvchilarda o’quv predmetlari bo’yicha faqatgina **bilim**, **ko’nikma** va **malakalarga** ega bo’lishning o’zi yetarli emasligi ma’lum bo’lmoqda. Jumladan, ta’lim muassasasini muaffaqiyatli bitirgan ayrim o’quvchilar, hayotda ko’p muaffaqiyatsizliklarga uchraydi, oliy ta’lim muassasini bitirib yangi ishga borgan yosh mutaxassis universitet yoki institutda kasbiga oid bilim va ko’nikmalarni yetarli darajada olgan bo’lsada, ish joyiga ko’nikishi uzoq vaqt davom etadi, kritik momentda ma’lum bo’ladiki, maktab yoki litseyda olingan bilim va ko’nikmalar tezda hal qilinishi kerak bo’lgan hayotiy vaziyatlarga to’g’ri kelmaydi yoki umuman hayotida kerak bo’lmaydi. Shunga ko’ra ta’lim jarayoniga o’quvchilar egallagan bilim, ko’nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo’llashga o’rgatadigan **kompetensiyaviy yondoshuvga** asoslangan DTS larni yaratish va ta’lim jarayoniga qo’llash zaruriyati yuzaga keldi.

Hozirgi kunda kompetentlilik istilohi ostida shaxsning kasbiy va umumiyligi kompetentliliği tushunilmoqda. Ta’lim jarayoniga kompetentlilik tushunchasining kiritilishi shu kunga qadar o’qitish amaliyotida uchraydigan nazariy bilim bilan undan amaliyotda foydalanish o’rtasidagi uzilish, ya’ni o’quvchi nazariy bilimga ega bo’lgan holda, undan muammoli vaziyatlarda foydalanishga qiyinalish holatlarini bartaraf qiladi. Demak, an’anaviy ta’limda

ustun bo’lgan “bilish paradigmasi” o’rniga “bilimlardan muammoli vaziyatlarda o’rinli foydalanish” paradigmasi ustunlik qilmoqda.

Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, kopmetensiyaviy yondashuv bilish paradigmasini inkor etmagan holda, uni muammoli vaziyatlarda qo’llay olish paradigmasiga bo’ysunadigan ikkinchi plandagi paradigmaga aylantiradi. Lekin “bilish paradigmasi” bilan “qo’llash paradigmasi” o’zaro bog’liq paradigmalardir.

Olib borilayotgan o’quv-tarbiyaviy ishlarning yakuniy natijasiga erishmoq uchun o’quv jarayonining boshlanishidayoq o’quvchi qanday kopmetensiyalarni egallashi lozimligini aniq belgilab olish kerak bo’ladi. O’quvchining har bir sinfda egallaydigan kopmetensiyasi oddiydan murakkabga qarab rivojlanib boradi.

Kopmetensiyaviy ta’lim o’quvchilarning muayyan bilimlar majmuini egallashinigina emas, balki shaxsni rivojlantirish, anglash va yaratish qobiliyatlarini o’stirishni mo’ljallaydi. Shunga muvofiq ta’lim maqsadi, mazmuni ustunligi ham o’zgaradi: bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirishdan asosiy maqsad ularni hayotda amaliy masalalarni hal qilishda erkin qo’llay olish qobiliyatini shakllantirishga yo’naltiriladi. Shuning uchun bugungi kun o’quvchisi bilim, ko’nikma va malakalarni egallah barobarida, ularni amaliyotda to’g’ri qo’llay olishi ham lozim bo’ladi.

Hozirgi kunda har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalash umumiy ta’limning bosh vazifasi ekan, intellektual yetuk shaxs tarbiyasi uchun kasbiy kompetentlilik bilan birga, umumiy kompetentlilikka ega bo’lish ham talab etiladi.

Ta’kidlash kerakki, ushbu qaror mamlakatimizda nafaqat chet tillarni, balki umuman til ta’limini, shu jumladan, respublikamizning davlat tili bo’lmish o’zbek tilini o’qitishni ham yanada takomillashtirish (o’zbek tili fanidan DTS talablarini ham xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish va ta’limga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, o’quv dasturlari mazmunini uzluksizlik va uzviylik asosida qayta ko’rib chiqish) borasida katta ishlar amalga

oshirilishiga sabab bo'ldi.

"Kompetensiya", "kompetentlilik" tushunchalari tilshunoslikda ilk bor XX asr o'rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo'llangan bo'lib, tilni ishlatish jarayonida "faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida", ta'lim sohasida esa "kompetensiyaviy yondashuv" sifatida talqin etilgan bo'lib, ta'limda natijaviylikni ko'rsatuvchi omillar sifatida qayd etilgan. Aytish joizki, lug'atlarda ushbu so'zlarning ma'nolari turlicha izohlanadi. Chunonchi, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da kompetensiya so'ziga quyidagicha izohlangan:

Kompetensiya – (lot. sompetere – layoqatli, munosib bo'lmoq).

1) Muayyan tashkilot yoki mansabdar shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat.

2) Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi".

Ruscha-o'zbekcha tarjima lug'atlarida esa bu so'z quyidagicha sharhlanadi:

"Kompetensiya – 1. Biror kishi yaxshi xabardor bo'lgan soha yoki masala; 2. Vakolat, huquq ixtiyor; yetarli ma'lumotga ega bo'lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, bilimdon, xabardor, omilkor; 2) asosli, e'tiborli, mo'tabar; 3) kompetensiyaga, ya'ni huquqqa ega bo'lgan;

Kompetentlik – chuqur bilimga egalik; chuqur bilimga asoslanganlik, asoslilik; xabardorlik, omilkorlik". Berilgan izohlar ta'lim sohasida kompetensiya so'zini layoqat, kompetentlikni esa layoqatlilik deb, ta'limga kompetensiyaviy yondashuvni egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim yo'nalishi, deb tushunish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Til ta'limida kompetensiyaviy yondashuv ta'lim oluvchilarining o'rganayotgan tili materiallaridan va olingan axboratlardan o'z hayotiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash va nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo'llay olish ko'nikma-malakalarini tarkib toptirish, ya'ni tilni maqsadli ravishda

amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni hosil qiladi. Kompetensiyalar 2 asosiy turga: tayanch va xususiy kompetensiyalarga bo'linadi. (1.2.-chizma)



Hozirgi kunda o'quvchilar kompetensiyasini oshirish yo'lida ko'plab ishlar olib borilmoqda. Ularni o'z kasbining ustasi bo'lib yetishishlari uchun kasbiy kompetensiyasi bo'lishi lozim. Kasbiy layoqat, o'z ishiga muhabbat, majburiyatni his etish yoshlar uchun juda zarur hisoblanadi. Vatan ravnaqi yoshlar qo'lida ekan, ularni o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashishlari zaruriy masala bo'lib turibdi. O'quvchilar kom'etensiyasini oshirishda turli usullardan foydalilanadi. Ayniqsa trenninglardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Buyuk faylasuf Konfutsiy aytgan edi: "Men nimani eshitsam, unutaman,

nimani ko'rsam xotiramda saqlayman, nimani o'zim qilsam tushunaman".<sup>16</sup> Shuning uchun ta'lim jarayonida o'quvchilarga faol bo'lishni talab etadigan uslublarda dars o'tish yaxshi natija beradi. Ana shunday uslub treninglar tarzida bilim berishdir. Trening-interfaol uslublar bilan ta'lim berish, qabul etilgan axborotlarni qo'llash va muhokama etish deganidir. Trening uslubida, avvalo, mashg'ulotni o'tkazuvchi trener maxsus tayyorgarlik ko'rgan, malakasini oshirgan bo'lishi lozim. Trening jarayonida har bir ishtirokchi o'rganayotgan materialni o'zlashtirishda yaxshi qobiliyat borligini his etishga imkon beriladi. Barcha treninglar o'z tarkibiy tuzilmalariga ega. Trening o'tkazish tarkibi moduldir. Trening moduli quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maqsad va vazifalar;
- reglament;
- sessiyalar(modulning alohida qismlari, ular to'rtdan ko'p bo'lmasligi lozim.

Treningda auditorianing yosh davri xususiyatiga e'tibor berib, ularning tilida so'zlashish lozim. Maxsus termin va tushunchalarning lug'atini berib, izohlab borish kerak. Trening qulay sharoitda, qatnashuvchilarining bir-birlariga ishonchli munosabatlarga asoslanishi talab etiladi. Shuning uchun treninglarning asosiy qismi tanishuv va ishslash qoidalarini qabul etishdir. Bular demokratik jamiyatning taraqqiyot manbai bo'lib hisoblanadi.

Treninglar muvafaqiyatli o'tishi uchun ta'limning quyidagi usul va uslublari qo'llaniladi:

- illyustrasiya va ko'rgazma materiallarni namoyish etish;
- aqliy hujum;
- guruhlardagi bahslar;
- audio vizual vositalar;
- rolli o'yinlar;
- vaziyatli vazifalar;

---

<sup>16</sup> V.Vorontsov kompozitsiyasi ,Sh.Abdurazzoqova tarjimasи. "Tafakkur gulshani". Toshkent.G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyot.1989-y.

- trening o’tkazishning birinchi qadami tanishuvdir.

Barcha fanlardan trening o’tkazishda biz tanishuvning quyidagi variantlarini taklif etamiz.

Guruhlar juftlarga bo’linadi. Juftlar bir-birining ismining ma’nosи, kim va nima uchun bu ismni qo’yganligi bilan tanishadilar va o’z sheriklari haqida bu ma’lumotni aytib beradilar. Bu mashq keyingi darslarda ismlarda yashiringan g’oyalarni ochishga yordam beradi.

Trening o’tkazishning ikkinchi qadami – o’quvchilar bilan qoidalarni qabul etish.

O’quvchilar o’rtasidagi trening davrida ishonch va erkinlik bo’lishi, ta’lim muvafaqqiyatli o’tishi uchun o’zaro kelishilgan holda ishlash qoidalarni qabul qilish zarurligi aytildi. O’quvchilar bilan birga bu qoidalarni ishlab chiqiladi va uni bajarish zarurligi kelishiladi. O’quvchilar bilan ishlash qoidalari taxminan quyidagicha bo’ladi:

- O’z vaqtida kelish;
- Ijobiy bo’lish;
- Navbat bilan qisqa va mazmunli gapirish;
- Tanqid etmaslik;
- O’z nomidan gapirish;
- Sir saqlash;
- Ixtiyorilik;
- Ishorani sezuvchanlik;
- Tenglik;

Treninglar o’quv jarayonida amaliy mashg’ulotlarni o’tish uslublari sifatida qo’llanilganda yaxshi natija beradi. O’quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o’rni va ahamiyati.

Keng ma’noda “Innovatsiya” pedagogik tizimga yangilik kiritish yo’li bilan ta’lim-tarbiya jaryonini maqbullashtirish, sifat va samaradorligini oshirishni ko’zda tutadi. pedagogik tizimga kiritilgan yangilik sifat va samaradorlikka salbiy ta’sir qilishi ham mumkin. Biz tizimga uning ichki zaxira

va imkoniyatlarini hisobga olgan holda sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida kiritilgan yangiliklarnigina innovatsiya deb tushunamiz. Pedagogik tizimni takomillashtirib, yuqori sifat va samaradorlikka erishishga oid g'oya, nazariya, qoida, shakl, metodlar va vositalar tizimini pedagogik innovatsiyalar sifatida qabul qilish mumkin. So'nggi 20-25 yil davomida ‘edagogik tizimga ko’plab yangiliklar kiritilayotganligining guvohi bo’lib turibmiz. Misol sifatida yangi konsepsiylar, investitsiyalar, DTS, testlar, muqobil o’quv rejalar, yangi turdag'i o’quv yurtlari, texnologiyalar va shu kabilarni ko’rsatish mumkin.

Hozirgi kunda yangi texnika va texnologiyaning kirib kelishi ham amaliy, ham nazariy bilimga ega bo’lgan maxsus fanlarni yaxshi o’zlashtirgan malakali kadrlarni yetishtirish talabi asosida o’quvchilarga darslarni hozirgi davrda zamon talablariga javob beradigan yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib boriladigan darslargina o’quvchilarga yaxshi bilim beradi.

O’quvchilarga bilim berishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ahamiyati to’g’risida so’z borganda ta’lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko’tarish diqqatimiz markazida bo’lishi darkor. Bu masala “Sog’lom bola yili” Davlat dasturida ham asosiy yo’nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan.

Hozirgi zamonaviy ta’lim texnologiyalarining har biri o’zida o’quv mashg’ulotini o’tkazish shart-sharoiti to’g’risida axborot materiallarini, pedagogik maqsad, vazifa va ko’zlangan natijalarni, o’quv mashg’ulotning rejasi, ta’limning usul va vositalarini mujassamlashtirgan. Shuningdek o’qituvchi va o’quvchining mazkur o’quv mashg’ulotida erishadigan maqsadi bo’yicha hamkorlikdagi faoliyatining bosqichma-bosqich ta’riflanishini ham o’z ichiga oladi. Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko’rinib turibdiki, ta’lim jarayoniga ta’limning yangi, zamonaviy usul va vositalari kirib kelmoqda va ular o’quv mashg’ulotlarida keng ko’lamda samarali foydalanilmoqda. Jumladan, o’quvchilarning kasbiy ko’nikmalarini shakllantirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik g’oyalar amalga oshirilmoqda. Shu bois, o’qituvchi bilim olishning yagona manbai bo’lib qolishi kerak emas, balki o’quvchi

mustaqil ishlash jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi, o'quv jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishi lozim. Zamon talablariga javob beradigan fidoiy izlanuvchan yangilikga intiluvchan tashabbuskor kasbiy bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ta'lif jarayonida o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda zarur bilim va malakalarni hosil qilish yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim ahmiyatga egadir. Mashg'ulotlarga oid didaktik, ko'rgazmalar, multimedya, kompyuter vositalari va inovatsion texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ulotlarni olib borish bu borada kutilgan natijani beradi.

### **1-bob bo'yicha xulosa**

Kompetensiyalarning fan va turmushga kirib kelishi borasida izlanishlar olib borib, quyidagi xulosaga keldik:

1. Tilni o'rghanishga doir dastlabki kopmetensiyalar 1960–1970 yillardan kiritila boshlandi. Bunda D. Xayms tomonidan "kommunikativ kopmetensiya" tushunchasi kiritiladi. Kompetensiya/kompetentlik kategoriyalarini tilni ayniqsa, ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o'rghanish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda, professionallik va muloqotni o'rghanishda foydalanila boshlandi.

2. 1990-yillardan keyin kompetensiyaviy yondoshuv kasbiy ta'limga, umumta'lif fanlariga va boshqa yo'nalishlarda qo'llanila boshlandi.

3. O'zbekistonda dastlab Birinchi Prezidentimiz farmoniga muvofiq, chet tillarni o'qitishni takomillashtirishga qaratilgan 2012-yil 12-dekabr farmoniga muvofiq ilk bor kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan DTS ishlab chiqilib, 2013/2014 o'quv yilidan bosqichma bosqich amaliyotga joriy etish boshlandi.

4. Kompetensiya bo'lishi uchun uning strukturasi qanday bo'lishi kerak? degan savol tug'ilishi tabiiy. Kompetensiyaning struktura komponentalari ro'yxati shakllantirildi.

5. Kompetensiyalardan ta'lif kompetensiyalarni farqlashga urinildi.

Masalan, o'quvchi maktabda fuqorolik kompetensiyasini o'zlashtirsa-da, uni to'la qonli ravishda matabni tugatganidan so'ng ishlatadi. Shunga ko'ra bunday kopmetensiyalar, o'qish davrida ta'lim kompetensiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

6.Tayanch kompetensiyalar – ta'lim mazmunining umumiy qismiga tegishli;

1)umumpredmet kompetensiyalari – ma'lum doiraga kiruvchi o'quv predmetlari va ta'lim sohalariga tegishli;

2)predmetga oid kompetensiyalar – oldingi ikkitaga nisbatan xususiy hisoblanib o'quv predmeti doirasida shakllantiriladi.

Tayanch kompetensiyalar har safar ta'limning ma'lum bir bosqichi va belgilangan o'quv predmeti uchun konkretlashtiriladi. Kompetensiyalarni shakllantirishni dars jarayoniga kiritish uchun ularni faoliyat shaklida berish kerak.

## **2-BOB. TIL VA TA`LIMGA OID KOMPETENSIYALARING O`ZIGA XOSLIGI**

### **2.1. Til ta`limiga kopmetensiyaviy yondashuv**

Mustaqillik davrida yaratilgan 5-9-sinflar ona tili darsliklarida milliy mafkuramizning asosiy g'oyalari: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo samimiy munosabat va boshqalar, shuningdek, milliy istiqlol mafkurasining tarixiy, falsafiy va iqtisodiy asoslari hamda uning milliy va umuminsoniy tamoyillari masalalari hisobga olingan va bu oljanob g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirishga qaratilgan bir qancha matnlar, su'ratlar va misollar bilan ta'minlangan.

O'qituvchi darsliklarda berilgan mavjud manbalar bilan cheklanib qolmasdan, kundalik hayotimizdagi o'zgarishlar, yangiliklar asosida ona tili mashg'ulotlariga yangidan-yangi materiallarni, matnlarni olib kirishi mumkin. Bayon va insho mashqlarini tanlashda, ularni yozishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida milliy istiqlol g'oyalarining aks ettirilishiga o'quvchilar diqqatini tortish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Milliy qadriyatlarni ongiga singdirishda Shu ruhdagi diktant matnlarini tanlash ham katta ahamiyat kasb etadi.

Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rinn egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi. Bu esa aloqaning muhim vositasi – til orqali amalga oshiriladi. Kuzatishlardan aniqlanishicha, erkaklar va ayollar nutqida biologik va psixologik jihatdan qarama-qarshilik yaqqol ko'zga tashlanadi. Biolog olimlarning ta'kidlashicha qizlarning tili o'g'il bolalarga nisbatan ancha tez chiqar ekan. Ular dastlab turli tovushlarni talaffuz etib, Shu asosda so'zlarni, jumlalarни talaffuz qila boshlar, o'g'il bolalar esa butun-butun tayyor jumlalar talaffuz qilar ekanlar. Sakkiz yoshga qadar qizlar

o'g'il bolalarga qaraganda sezilarli darajada me'yordagi nutqqa ega bo'ladilar.<sup>17</sup> Sevinish, erkalash, achinish, qo'rqish, havas, sarosimalanish, koyish, alam kabi qator ichki holatlarning yuzaga chiqishida, bu so'z ma'lum darajada ahamiyatga ega...".<sup>18</sup> Ayollar nutqi hudud jihatdan ham o'ziga xoslikka ega bo'lib, qishloqlarda yashovchi ayollar nutqida "*o'lsin*", "*men o'lay*", "*voy o'lay*", "*jonini olsin*" kabi so'zlar ancha faol qo'llanadi.<sup>19</sup> O'zbek tilida ham dunyodagi barcha tillar kabi, fikr faqat lingvistik yo'l bilangina emas, balki lingvistik bo'limgan (ekstralinguistik yoki paralingvistik) vositalar – imo - ishoralar hamda implitsit (bo'laklarga ajralmas) tovushlar yordamida ham ifodalanadi.<sup>20</sup> Kishi jonli so'zlashuv nutqida ma'lum axborotni qisqa va lo'nda ifodalashda, fikrning emotsionalligini va ta'sirchanligini oshirishda holat va sharoitdan kelib chiqib tilga yondosh bo'lgan imo-ishoralardan (noverbal vositalardan) foydalanadi.<sup>21</sup> O'zbek xalqi nutq odatida alohida olingan marosimlarda erkaklarning vazifalari, xatti-harakatlari hamda ayollarning vazifalari va har bir xatti-harakatlari izchillik bilan ishlab chiqilgan. Shunday ekan, har bir jins vakillari o'z xoslik doirasidan chiqib ketmasligi<sup>22</sup> kabi fikrlar yorqin misollar orqali ifodalangan.

O'qituvchining vazifasi fan materiallari bilan tanishtirishdangina iborat emas, balki o'quvchi og'zaki va yozma nutqini o'stirish, savodxonlikni oshirishdir. Buning uchun yil davomida mustaqil ijod etishga o'rgatib boriladi.

Ta'lim mazmunini chuqur anglagan, milliy g'ururlari, o'zbek ekanligidan faxrlanadigan, o'zbek millatning ruiyatini chuqur bilgan, bugungi pedagogik tafakkur talablari asosidagi kasbiy-ma'naviy fazilatlar sohibi bo'lgan, pedagogik mahorat sirlarini puxta egallagan o'qituvchigina o'quvchilar qalbiga yo'l to'a oladi. Bunda adabiyot o'qituvchisining faoliyati muhim. Chunki, adabiyot ta'lim

<sup>17</sup> Комсов В.В. Язык города. – М., 1991, С.100

<sup>18</sup> Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мuloқот шакллари. Фил.фанлари номз.дисс.автореферати. Самарқанд, 1993. 19-бет.

<sup>19</sup> Мўминов С. Ўзбек мuloқот хулқининг жинс жиҳатдан хосланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 64-66 бетлар.

<sup>20</sup> Карап: Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. Андижон. 1980.

<sup>21</sup> Сайдхонов М. Алока-аралашув ва имо-ишоралар. – Т. “Фан”. 2008, 3-бет.

<sup>22</sup> Abdulkarimova N. “Shaytanat” asari tilining gender xususiyatlari. Magisterlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2014. 68-70-betlar.

mazmuni, mohiyati, o'zbek millatning ruhiyati, hayoti, fikri, hayoloti, tasavvurining ifodasi bo'lib, milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishga qaratilgan jarayondir.

“Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” va “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunda ta’lim mazmunini yangi shakl va ko’rinishlarini joriy etish, o’quvchi faoliyatini rivojlantirishga, bolaning shaxsiy fikrini kamol toptirishga xizmat qiladigan, ijodkorlikka yo’naltiruvchi natijali ta’limni tashkil etishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirishga erishish muhim vazifa ekanligi uqtirilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi ta’lim sohasida muhim qadam bo’ldi.

2017-2021-yillarga mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta’lim sohasida amalga oshirilishi zarur bo’lgan dolzarb vazifalar belgilangan. Jumladan, ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kopmetensiavyiy yondashuv asosida takomillashtirish, o’quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish talab etiladi. Fan-texnika asri va jadal taraqqiy etayotgan hayot o’quvchilarda o’quv predmetlari bo'yicha faqatgina bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lishning o’zi yetarli emasligini ko’rsatmoqda. Bu quyidagi holatlarda namoyon bo’lmoqda:

a) ta’lim muassasasini muvaffaqiyatli bitirgan ayrim o’quvchilar, hayotda ko’p muvaffaqiyatsizliklarga uchraydi;

b) oliv ta’lim muassasini bitirib yangi ishga borgan yosh mutaxassis universitet yoki institutda kasbiga oid bilim va ko’nikmalarni yetarli darajada olgan bo’lsa-da, ish joyiga ko’nikishi uzoq vaqt davom etadi;

e) ko’pincha maktab yoki litseyda olingan bilim va ko’nikmalar tezda hal qilinishi kerak bo’lgan hayotiy vaziyatlarga to’g’ri kelmaydi yoki umuman hayotida kerak bo’lmaydi.

Shunga ko’ra ta’lim jarayoniga o’quvchilar egallagan bilim, ko’nikma va

malakalarini bevosita kundalik hayotida qo'llashga o'rgatadigan kopmetensiyaviy yondoshuvga asoslangan DTSlarni yaratish va ta'lim jarayoniga qo'llash zaruriyati yuzaga keldi.

“Competence” so'zi “to compete” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa “musobaqalashishga layoqatlilik” ma'nosida keladi.

Shunga ko'ra ta'lim kopmetensiyalarini tasdiqlangan standartda keltirilgan ta'rif bo'yicha qabul qilamiz.

**Bilim** – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

**ko'nikma** – o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

**malaka** – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

**kopmetensiya** – mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Kopmetensiyaviy yondashuv va uning xorijiy tajribada qo'llanilishi, uning fan va turmushga kirib kelishi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Ta'lim kopmetensiyasi o'quvchining kelajakdagi to'laqonli hayotidagi faoliyatini modellashtiradi. Masalan, fuqaro ma'lum bir yoshga yetgunga qadar ayrim kompetensiyalarini hayotiga tatbiq eta olmaydi. Lekin bu ularni o'quvchida shakllantirish shartmas degani emas. Masalan, o'quvchi maktabda fuqarolik kopmetensiyasini o'zlashtirsa-da, uni hayotda maktabni bitirganidan so'ng ishlatadi. Shunga ko'ra bunday kopmetensiyalar o'qish davrida ta'lim kopmetensiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tayanch kopmetensiyalarning dunyo bo'yicha yagona qabul qilingan ro'yxati yo'q. Chunki har bir mamlakatning yoki hududning o'z an'analari, mentaliteti va o'ziga xos talablari bor. Kopmetensiya – jamiyatning o'z fuqarolariga qo'yan ijtimoiy buyurtmasi bo'lib, ularning ro'yxati muayyan mamlakatdagi yoki hududdagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Bunday kelishuvga har doim ham erishib bo'lmaydi. Masalan, Shveytsariya va Amerika

Qo'shma Shtatlarining iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda ta'lim statistikasi Milliy institutining "Tayanch kopmetensiyalarni tanlash va aniqlash" nomli loyihasida ham tayanch kopmetensiyalarni qat'iy ravishda aniqlab olishning imkoniyati bo'lмаган.

### ***Umumiy va kasbiy kompetentlilik***

Kompetentlilikka bag'ishlangan ayrim adabiyotlarda umumiy va kasbiy kompetentlilik farqlanadi hamda kasbiy kompetentlilikka ega bo'lgan shaxs umumiy kompetentlilikka ham ega bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi. Ba'zi olimlar esa uch bosqichli kopmetensiyani e'tirof etadilar: 1) umumiy(tayanch) kompetensiya; 2) umumiy predmetli kopmetensiya; 3) predmetli kopmetensiya. Oxirgi kopmetensiya oldingi ikki kopmetensiyaga nisbatan xususiy kompetensiya sanaladi.

Umumiy(tayanch) kompetentlilikka quyidagi sifatlar kiritiladi:

- estetik(yuqori emotsional barqarorlikka, yaxshi didga ega bo'lish);
- kommunikativ (kirishimlilik, xushmuomalalik, atrofdagilarning mehrini qozonish);
- kreativlik(o'z ishiga ijodiy yondasha olish).

Bunday umumiy kopmetensiyalar qatoriga ayrim olimlar (N. Gurdil) axborot bilan ishslash kopmetensiyasi, shaxs sifatida o'z-o'zini kamol toptirish kopmetensiyasi, ijtimoiy faol grajdani kopmetensiyasi, umummadaniy kopmetensiyalarni qo'shadi.

Ko'rsatilgan kopmetensiyalar barcha o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lib, alohida-alohida o'quv predmetlariga xos kopmetensiyalar bilan hamkorlikda amal qiladi.

Hozirgi maktab ta'limi oldidagi muhim vazifa o'quvchilarning kelgusi hayotlari uchun zarur bo'lgan umumiy kopmetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Shu bilan birga, ta'lim bo'g'inlaridagi har bir fan tarmog'ining o'ziga xos kopmetensiyalari mavjud.

### ***Til ta'limida kopmetensiyaviylik***

Kopmetensiyaviy ta'lim kontseptsiyasi til ta'limi oldiga yoshlarda

muayyan kopmetensiyalarni, xususan, lingvistik, nutqiy, kreativ (mustaqil va ijodiy fikrlash), pragmalingvistik singari kopmetensiyalarni shakllantirish vazifasini qo'yadi.

### ***Nutqiy kopmetensiya***

O'quvchining nutqiy kopmetensiysi muayyan til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir.

Til metodistlarining ta'kidlashlaricha, nutqiy kopmetensiya tuzilishini ikki asosda – lingvistik va psixologik printsiplar asosida belgilash mumkin. Lingvistik printsipga ko'ra, til bir necha sohalarning (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik ekan, nutqiy kopmetensiya ham o'quvchilarning shu sohalarga xos kichik sistemalarni o'zlashtirishi va ulardan nutqiy vaziyatga muvofiq o'rinali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishiga qarab belgilanadi.

Til kopmetensiyasiga psixologik nuqtai nazardan ikki asosiy tarkibiy qismdan tashkil topgan sistema sifatida qaraladi. Ulardan birinchisi shaxsning aloqa-aratashuv va faoliyat jarayonida to'plagan ***nutqiy tajriba*** ma'lumotlari; ikkinchisi ta'lim muassasalarida maxsus o'qitish jarayonida olgan ***til haqidagi bilimlari***.

***Nutqiy tajriba*** ona tilini amaliy bilish, oilada, ko'cha-ko'yda, jamoat joylarida boshqalardan eshitish orqali maydonga keladi. Bu mashxur psixolog L. S. Vigotskiyning ta'limning ikki turi: 1) spontan va 2) maxsus tashkil qilingan turlari haqidagi fikriga muvofiq keladi. Spontan ta'limda, L. S. Vigotskiyning obrazli tili bilan aytganda, bola "o'z dasturi bo'yicha" harakat qiladi. Atrof-muhitdan o'zi o'rganadi. ***Til haqidagi bilim*** esa, maxsus dastur asosida ta'lim muassasalarida o'qitish orqali shakllantiriladi.

Imo-ishora, mimika singari paralingvistik vositalar ham nutqiy tajriba asosida o'zlashtiriladi. So'zlovchi til haqidagi bilim asosida nutqiy faoliyatga kirishsa-yu, lekin nutqiy tajriba asosida hosil bo'ladigan bilimga yetarli ega bo'lmasa, uning lingvistik kopmetensiyyaga to'liq ega emasligi bilinib qoladi. Mashhur sharqshunos German Vamberi sharq tillarini, islom madaniyatini

maxsus dastur asosida puxta o'rganadi. Mavarounnahr va Xurosonda ulamo sifatida katta izzat-ikromga sazovor bo'ladi. Lekin bir o'tirishda birgina harakati bilan musulmon emasligini sezdirib qo'yadi. Yoqimli musiqa ovozidan huzurlanib, oyog'inining uchini tebratadi. Sahrq ahli musiqadan zavqlanganini oyoq uchini qimirlatish orqali emas, boshini gorizontal chayqash orqali ifodalaydi.

Demak, nutqiy kopmetensiya nutqiy tajriba va til haqidagi bilim munosabati bir butunligi asosida shakllanadi. Shunday ekan, o'quvchilarning nutqiy kopmetensiyasini shakllantirish jarayonida bu ikki tomonning o'zaro munosabatini hisobga olish katta ahamiyatga ega. Aytaylik, nutqiy jarayonda nutq oqimi bilan birgalikda unga qo'shimcha ravishda qo'llaniladigan so'zlovchining yuz, ko'l, ko'z, lab harakatlari, ovozning baland-pastligi singari turli xil paralingvistik vositalardan foydalanish malaka va ko'nikmasi spontan, bolalarda nutqiy muhitni bevosita kuzatish asosida "o'z dasturi bo'yicha" shakllansa, nutq oqimini to'g'ri ishga solish malaka va ko'nikmasi maxsus dastur asosida o'qish mahsuli sifatida maydonga keladi.

Nutqiy kopmetensiya – o'quvchining notanish matnni ifodali o'qiy olish, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qila olish, fikrni yozma ravishda izchil ifodalay olish darjasini hisoblanadi.

*Masalan:* 8-sinfda (1-chorak, 1-dars) "So'zdan so'zning farqi bor" mavzuiga doir (1-mashq) "*Mukofot va jazo*" hikoyati berilgan. Matn mazmuni: *Qadimda podsholardan biri tush ko'rib munajjimlardan bashoratini so'raydi. Birinchi munajjim aqlli bo'lsada, dag'al so'zli dilozor edi. Munajjim tushga shunday ta'bir beradi: "Podshohim, barcha do'st-yorlaringiz vafot etadi, o'zingiz yolg'iz qolasiz", deydi.*

*Podshoning vaziri shunday ta'bir beradi: "Podshohim, ko'rghan tushingiz muborak bo'lsin. Sadaqalar bering, bandilarni zindondan ozod qiling. Siz uzoq umr ko'rasiz", deydi. Podsho vazirini mukofotlaydi.*

O'quvchi matnni o'qish orqali undan xulosa chiqarish, shirin va muloyim so'zlash, so'z tanlash, o'ylab gapirish haqida maqollar, hikmatli so'zlardan

foydalanim fikrini og'zaki va yozma ravishda izchil ifodalaydi.

### **Lingvistik kopmetensiya**

Maktab o'quvchisining lingvistik kopmetensiyasi deganda til sistemasi haqidagi bilimga, lingvistik tafakkurga, yangi til vaziyatlarida bilim va ko'nikmalarini mustaqil ko'llash tajribasiga ega bo'lgan o'quvchining integral shaxsiy xislatlari tushuniladi.

Boshqacha aytganda, lingvistik kompetensiya ijtimoiy hodisa va belgilar sistemasi sifatida til haqida, tilning qurilishi va funktsiyalashishi haqidagi o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmasi hamda bulardan turli vaziyatlarda foydalanish mahorati anglashiladi.

Lingvistik kopmetensiya o'quvchining ona tili fani haqidagi bilimi va bu bilimdan amaliyatda foydalanish malaka va ko'nikmasi bo'lib, bu malaka va ko'nikma maxsus dastur asosida ta'lim muassasalarida o'qitish orqali amalga oshiriladi.

Lingvistik kopmetensiya o'quvchining ona tili fanining fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya, punktuatsiya, stilistika singari bo'limlari haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish malaka va ko'nikmasidir.

Lingvistik kompetentlilik butunlik sifatida bir necha struktur komponentlardan tashkil topadi. Eng avvalo, ona tili fani haqidagi bilim va malaka o'rtaqidagi munosabatdan iborat. Ona tili haqidagi bilim esa o'zbek tilining funktsiyasi; ona tili fanining bo'limlari, til sistemasi va uning birliklari, bu birliklarning ma'no va vazifalari, so'z turkumlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, gap bo'laklari va gapning ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko'ra turlari, ularning uslubiy belgilari imloviy xususiyatlari sistemasidan tashkil topadi.

Malaka esa, yuqorida ko'rsatilgan barcha ona tili fani bo'limlari va uning birliklaridan nutq vaziyatiga muvofiq foydalana olish qobiliyatini shakllantirish orqali vujudga keladi.

Ta'limga kopmetensiyaviy yondashuv, bu – ta'limni bozor ehtiyojlariga

muvofiq holga keltirishga harakat natijasi bo'lib, ta'lif natijasi sifatida o'quvchilarning o'zlashtirgan axborotlari yig'indisi emas, balki ularning turli vaziyatlarda egallagan bilimlaridan foydalana olish qobiliyati e'tiborga olinadi.

Lingvistik kopmetensiya o'quvchilarning orfografik, punktuatsion qoidalardan turli vaziyatlarda o'rini foydalana olish malaka va ko'nikmasini ham o'z ichiga oladi.

**Orfografik ko'nikma.** Har bir xalqning madaniyatlilik darajasi uning savodxonlik darajasi bilan belgilanadi. Savodxonlik darajasi esa, faqat o'qish-yozishni bilish bilangina emas, balki so'zlarni qanchalik to'g'ri yoza olish qobiliyatiga ega bo'lish bilan o'lchanadi.

Mustaqillik sharoitida mamlakatimizning xalqaro nufuzining ortishi, davlat tili bo'lgan o'zbek tilining ham xalqaro mavqeい ko'tarilishiga olib keldi. Dunyo miqyosida bu tilni o'rganishga qiziquvchilar soni tobora ko'payib bormoqda. Ayni paytda axborotlar oqimi nihoyatda kuchaygani natijasida aholining orfografik savodxonlik darajasini oshirishga extiyoj ortmoqda. Bu esa, orfografik malakali shaxsni tarbiyalash muammosini yuzaga keltirmoqda.

Orfografiyanı o'qitish ilgari ham ona tilini o'qitishda eng ustun yo'naliш bo'lib kelgan. Lekin o'quvchilarning orfografik qoidalari haqidagi bilimi majmuini shakllantirish bilan cheklangan. Hozirgi kundagidek shaxs kopmetensiyasi darajasiga ko'tarilmagandi.

Orfografik malaka va ko'nikmaga ega shaxs deganda o'quvchining maktab dasturi asosida orfografiya qoidalari bo'yicha egallagan bilimlaridan turli vaziyatlarda o'rini foydalana olish imkoniyatiga ega shaxs tushuniladi. Darslik, orfografik lug'atlarda berilgan ayrim harflarning imlosi, qo'shma, juft va takroriy so'zlarning imlosi, ayrim qo'shimchalarining imlosini puxta o'zlashtirish va ulardan turli vaziyatlarda (xat, mahlumotnama, dalolatnama, qaror, majlis bayoni, maqola yozish singari) o'rini foydalanish malaka va ko'nikmasining shakllanishi orfografik malaka va ko'nikmaga ega shaxsning tarbiyalanganini bildiradi. Ona tili ta'limining bosh vazifalaridan biri ana shunday shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

**Punktuatsion ko'nikma.** Bu lingvistik kompetentlilikning tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchining tinish belgilari haqidagi bilimi va undan muayyan nutq vaziyatida o'rini foydalana olish imkoniyati sanaladi.

Fikrni to'g'ri va aniq ifodalashda punktuatsion malaka va ko'nikma katta ahamiyatga ega. Masalan, Sobirjon keldi gapida "Sobirjon degan shaxsning kelgani" haqida axborot berilsa, Sobirjon, keldi gapida "qandaydir shaxsning kelgani to'g'risida Sobirjon degan shaxsga ma'lumot berilayotgani" haqidagi axborot ifodalanadi. Birinchi gapda bitta subyekt va shu subyektning harakati ifodalansa, ikkinchi gapda ikkita subyekt ishtirok etadi. Birinchi subyekt tinglovchi, ikkinchi subyekt gapdan anglashilgan harakatning ijrochisi sanaladi. Gapni tashkil etgan so'zlar bir xil bo'lgani holda, bitta vergul gapning sintaktik tuzilishini ham, mazmuniy tuzilishini ham o'zgartirib yubormoqda. Ularni yozuvda to'g'ri ifodalashga shaxsning punktuatsion ko'nikmasi xizmat qilmoqda.

Masalan: 5-sinf "Ona tili" darsligining 53-darsidagi 185-mashqda berilgan to'g'ri, aniqrog'i so'zlarining gap bo'lagi yoki kirish so'z vazifasida kelayotgani yozuvda vergulning qo'yilishi yoki qo'yilmasligi orqali farqlanishini aniqlash orqlpi o'quvchining punktuatsion ko'nikmasi shakllanadi.

### **Lingvistik kreativlik (mustaqil va ijodiy fikrlash) kopmetensiyasi**

Kreativlik inglizcha create — "yaratish, ijod qilish" so'zidan olingan bo'lib, shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkurning mavjud andozalaridan chetlashgan holda benazir yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondashish qobiliyati hisoblanadi.

Ruxshunoslar fikriga ko'ra, har qanday chaqaloq tug'ilganda kreativ qobiliyatga ega bo'ladi. Lekin uni rivojlantirish yoki so'ndirish tarbiyachilarga bog'liq. Demak, mакtabda ta'limning barcha turlarida o'quvchining kreativ qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish barkamol avlodni tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Kreativ tafakkur insonning barcha faoliyat turlari uchun xos bo'lib, undan lingvistik tafakkur mustasno emas. Lingvistik kreativlik tilning barcha sathlariga

mansubdir. So'zlovchining tilning turli sath birliklaridan novatorona foydalanish mahorati, fikrni obrazli ifodalashda nostonart usullarni qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lingvistik kreativlik hisoblanadi.

Tilda bir fikrni turlicha shaklda ifodalash imkoniyati mavjud. Aynan qaysi shaklni tanlash, muayyan muloqot vaziyati uchun mos ifodani topa olish ham so'zlovchining topqirlik, ijodiylik mahoratiga, kreativlik kopmetensiyasiga bog'lqkdir.

Ona tili ta'limining asosiy usuli talablariga ko'ra, o'quvchi mavzu bo'yicha belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi uchun darslikdagi mashq va topshiriklarni o'n bosqichli mustaqil, ijodiy fikrlash mashqlari asosida bajarishi kerak. Ular quyidagilar: kuzatish, izlanish, alohidaliklarni sharhlash, umumiylitni topish, farqlarni aniqlash, qiyoslash, tasniflash, xulosa chiqarish, aloqadorliklarni ochish, amalda ko'llash. Masalan: "Ma'nodosh so'zlar va ularning umumiy hamda xususiy ma'nolari" mavzuiga doir topshirikda 5-sinf, (3-chorak, 167-dars) yuz, bet so'zlarining ma'nosiga teng keladigan so'zlarni va ularni bir-biridan nimasi bilan farq qilishini aytish uchun quyidagi ijodiy fikrlash mashqi bajariladi.

**Kuzatish:** yuz, bet...

**Izlanish:** yuz, bet, aft turq, bashara, jamol, chehra...

**Alohidaliklarni sharhlash:** yuz — uslubiy betaraf, aft — salbiy, jamol — ijobiy...

**Umumiylitni topish:** kishi boshining old tomoni...

**Farqlarni aniqlash:** aft basharaga nisbatan kuchsiz salbiy...

**Qiyoslash:** yuz — uslubiy betaraf; bet — so'zlashuv uslubiga xos; jamol — ijobiy, turq - salbiy....

**Tasniflash:** ijobiy — salbiyligiga ko'ra: ijobiy ma'nodagi so'zlar: yuz, jamol, oraz, chehra, salbiy ma'nodagi so'zlar: turq, bashara, bet...

**Xulosa chiqarish:** ma'nodosh so'zlar ekanligiga ta'rif beriladi.

**Aloqadorliklarni ochish:** ma'nodosh so'zlar zid ma'noli so'zlar kabi ma'no asosida bog'lanadi. Masalan: yuz, ko'z, burun, qulqoq so'zlari bir uyaga

mansub.

**Amalda qo'llash:** Gaplar tuzish. Masalan: Keksalarining nuroniy chehrasidan xonadonlar yorishganday bo'ladi.

Akademik litseylarning 1-bosqich o'quvchilari uchun yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligining 10-darsi ham omonim, sinonimlar hamda ularning uslubiy xususiyatlarini o'rganishga qaratiladi. Bu darsda berilgan 127-mashqda askiya matni beriladi. Askiya matnini o'rganish orqali o'kuvchilarda omonim so'zlardan o'rinni, foydalanib, so'z o'yinlari hosil qilish, kreativ tafakkurni rivojlantirish, kreativ kopmetensiyani shakllantirish maqsad qilib olinadi.

Sotsiolingvistik kopmetensiya o'quvchining jamiyat tarixiy taraqqiyotidagi o'zgarishlarning tilda aks etishini sotsial omil(tilning jamiyatga, jamiyatning tilga tahsiri)larning tilga ta'sirini, tinglovchining yoshi, jinsi, madaniyat darajasini e'tiborga olgan holda muloqot qilishiga doir bilim, ko'nikma va malakalaridir.

5-sinf, 1-chorak, 1-dars "Til — ijtimoiy hodisa" mavzuiga oid 2-topshirig'ini bajarish jarayonida o'quvchining sotsiolingvistik kopmetensiyasini quyidagicha shakllantirish mumkin. Ushbu mavzuga doir quyidagi, ya'ni "Yer yuzidagi tillar va har bir tilning rivoji, o'zbek tilining mavqeい haqida, ya'ni "Yer yuzida tillar ko'p. Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra ular 3000 dan ortiq. Masalan: ingliz, rus, nemis, arab, fors, koreys va boshqa tillar. Tillarning barchasi insonlar o'rtasidagi aloqa-aratashuvni ta'minlash vazifasini bajaradi. Har bir til asrlar davomida rivojlanib, boyib boradi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin o'zbek tilining ijtimoiy vazifalari yanada kengaydi..." mazmunidagi matn berilgan. Matn mazmunidan kelib chiqib o'qituvchi darsda hamkorlikda ishlash texnologiyasining kichik guruhlarda ishlash usuli asosida o'quvchilar diqqatiga "Nima uchun Rossiyada yoki Amerikada o'zbek tilida gaplashilmaydi?", "Nega ingliz, rus, nemis tillarini maxsus o'rganamiz?", "Til — ijtimoiy hodisa deganda nimani tushunasiz?" kabi savollarni havola etishi mumkin. O'quvchilar matn mazmunidan kelib chiqib savollarga og'zaki yoki

yozma javob beradilar. Ushbu savollarga kichik guruhlarning javobi eshitiladi.

Yuqoridagi darsning (5-sinf, 1-chorak, 1-dars) 1-mashqida "Quyidagi so'zlarning o'zbek tilida paydo bo'lish sabablarini aniqlang" talabi ko'yilgan. Kollej, litsey, tadbirkor, fermer, tuman, viloyat, kopmetensiya kabi so'zlarni har bir o'quvchi izohli lug'atlar asosida sharhlashga harakat qiladi.

### ***Pragmatik kopmetensiya***

Til faqat kishilar o'rtasidagi oddiygina aloqa vositasi emas, balki til egalarining o'zini qurshab turgan olamni bilish, qo'lga kiritgan bilimlarini kelajak avlodga yetkazish vositasi hamdir. Lisoniy birliklar vositasida axborot yig'iladi, saqlanadi va avloddan-avlodga o'tadi.

Har bir shaxs lisoniy qobiliyatga ega. Bu qobiliyat so'zlovchining faqat muayyan tildagi so'zlarni va ularning bog'lanish qoidalarini bilishi bilan cheklanib qolmaydi. Agar so'zlovchi lisoniy strukturalarni o'zlashtirsa-yu, ammo ulardan qanday va qaysi o'rinnarda foydalanishni bilmasa, lisoniy qobiliyatga to'liq egalik haqida fikr yuritib bo'lmaydi. Shuning uchun hozirgi kunda lisoniy qobiliyati kuchli shaxsni tarbiyalamoq uchun ta'lim jarayonida o'quvchilarning asosiy e'tiborini til sof ichki tuzilishini bilishdan tashqari, ularning har biridan qaysi vaziyatlarda qanday foydalanishni bilishiga ham qaratish lozim bo'ladi.

Pragmalingvistika bevosita kopmetensiyaviy ta'lim bilan aloqadordir. Chunki so'zlovchining til haqidagi bilimi bilan uni qayerda va qanday qilib qo'llash haqidagi bilimi o'rtasidagi munosabat pragmalingvistikaning tarkibiy qismi bo'lgan kognitolingvistikaning o'rganish obyekti bo'lishi bilan birga, bunday o'rganish ona tilini o'qitishga kopmetensiyaviy yondashuvni ham amalga oshiradi.<sup>23</sup>

Inson o'zini kurshab turgan olamni ongda umumlashtirib, olamning ilmiy, diniy, afsonaviy, lisoniy... manzaralarini yaratadi. Voqelikni ana shunday qismlarga ajratish va umumlashtirib idrok etish faqat insongagina ato qilingan

---

<sup>23</sup> Abduqodirov A. Umumiyo'rtalim makkablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002. № 4.

qobiliyatdir. Olloh bandasiga bu qobiliyatni tuhfa etmaganda, odamzot axborotlar dengizida cho'kib ketgan bo'lardi. Inson olamni o'simliklar dunyosi, hayvonot dunyosi singari qismlarga ajratganidek, ijtimoiy voqe-a-hodisalarini ham to'y, aza, bozor, maktab singari manzaralarga bo'ladi. Bu manzaralarning har birining o'ziga xos leksik xususiyatlari, muomala andozalari mavjud. Lisoniy birliklarni ana Shu manzaralar xususiyatidan kelib chiqib, o'rinni ishlatish shaxsning pragmalingvistik kopmetensiyasi sanaladi. Masalan, akademik litseylarning II bosqich o'quvchilari uchun "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligining 9-darsi "Qo'llanilish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan so'zlar"ga bag'ishlanadi. 109-mashq azada, to'yda, bozorda, maktabda ishlatiladigan so'zlarni topish va ulardan foydalanishga bag'ishlangan bo'lib, o'quvchilarning pragmalingvistik kopmetensiyasini rivojlantirishni maqsad qilib qo'yadi.

Har bir kishi muayyan muloqot vaziyatida o'z maqsadiga muvofiq ravishda ko'plab variantdosh til hodisalaridan ayni shu vaziyat uchun mosini tanlab qo'llash malakasiga ma'lum darajada ega.

O'zbekistonda mustaqillik tantanasi tufayli ta'lim-tarbiya tizimida tub o'zgarishlar yuz berdi. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar tizimida ta'lim olayotgan yoshlarning dunyosini boyitish ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash ta'lim va tarbiya jarayonida takomillashtirish, shu kunning dolzARB masalalaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv tobora rivojlanob o'qituvchi kompetensiyasi, o'quvchi kompetensiyasi, umuman, har qanday kasb egalari, aholi tilidagi kamchiliklarni tuzatish uchun ham til ta'limiga kompetensiyaviy yondashish suv va havodek zarur.

Ona tili va adabiyotini o'qitishga kompetensiyaviy yondashuv yoshlarni til haqidagi bilimlar bilan birga, muammoli vaziyatlarda bu bilimlardan o'rinni va maqsadga muvofiq ravishda foydalana olish qobiliyatiga ega shaxs sifatida tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun ham ona tili va adabiyot o'qituvchisining bosh vazifasi faqat bilimga ega yoshlarni tarbiyalash

emas, balki bu bilimlarga ega bo'lish bilan birga muammoli vaziyatlarda o'rini foydalanish malaka va ko'nikmasiga ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat bo'lmosg'i lozim.

Demak, ta'limning barcha turlarida, xususan, til ta'limida kompetensiyaviylikni rivojlantirishga e'tibor qaratish barkamol avlodni tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

## **2.2. Ona tili o'qituvchilarining kompetentligi darajasiga qo'yiladigan talablar**

Fan-texnika asri va jadal rivojlanayotgan ijtimoiy-siyosiy hayot o'qituvchi kadrlarning ma'nnaviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'ymoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasisining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etgan edi: "Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql – idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro sifatida yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak".

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglashiladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?

O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuning 5-moddasi 3-bandiga muvofiq ta'lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan Shug'ullanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy isloho tlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu

borada o'quvchilarga to'g'- ri, asosli mahlumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuq- laridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmos' i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l – oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'rili; b) nutqning aniqligi; v) nutqning ifodaviyligi; g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning noo'rin qo'llanilishi); vulg'garizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rni bo'limgan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan xoli bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak; d) nutqning ravonligi; j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqolalar, matallar va ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil

bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishini o'zlashtirishga erishishi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

### **Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar**

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilariga quyidagi davlat talablari qo'yiladi:

- “Davlat tili” haqidagi Qonunni bilishi;
- yangi tahrirdagi davlat ta'lif standartlari va o'quv dasturlarining oldingi dastur va DTSdan farqini aniq bilishi;
- ta'limga oid me'yoriy hujjatlardagi yangiliklarni mavzular mazmuniga singdirib o'qitish metodikasini bilishi;
- ona tili va adabiyot fanidan yaratilgan yangi muqobil darsliklarni tahlil qila olishi va ular bilan ishlashi;
- tilshunoslikdagi nazariy xulosalarni amaliyot bilan bog'lay olishi;
- ona tili ta'lifida 1930-1999-yillarda amalda bo'lgan formal va 1999 yildan boshlab kiritilgan substantsial ilmiy talqinlari orasidagi maqsad, usul va vosita farqlarini bilishi;
- ona tili bo'yicha ilmiy-tadqiqot, metodik ishlarni olib borish talablarini bilishi amaliyotga tatbiq eta olishi;
- ona tili yo'nalishida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi va oliy pedagogik ta'lifning davlat ta'lif standartlari haqida mahlumotga ega bo'lishi;
- soha bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar hamda to'garak ishlarini rejalashtirish, tashkil etishning yangi shakllarini bilishi;
- metod birlashma ishlarini tashkil qilish va DTS talablari asosida fan xonasini jihozlash talablarini bilishi;
- an'anaviy, noan'anaviy darslar, dars tizimi, dars tipi va dars turlarini bir-biridan farqlashi va to'g'ri tanlay olishi;
- ona tili darslarida til va nutq ko'nikmalarini nazorat qilish, yozma

ishlarni o'tkazish, murakkab mavzular bo'yicha testlar tuzish hamda ularni qo'llash metodikasini bilishi;

- ona tili bo'yicha yetuk mutafakkirlarning ma'naviy va ma'rifiy, madaniy meroslarini bilishi va ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish malakasiga ega bo'lishi;
- ona tili yo'nalishidagi ilg'or ish tajribalarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalanish malakasiga ega bo'lishi;
- sinf rahbari ishining mazmun va mundarijasini, shakl va usullarini bilishi va uni olib borish malakasiga ega bo'lishi;
- ona tili fanidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, saralash va ularga tabaqalashgan ta'lim berish metodikasini bilishi;
- ona tili bo'yicha muammolar, yangiliklar, kashfiyotlar, ilmiy izlanishlar, milliy va jahon pedagogikasi taraqqiyotidagi tadqiqotlar haqida mahlumotga ega bo'lishi;
- ona tili darslarida foydalanishga mo'ljallangan qomus va o'quv lug'atlarini bilish va ulardan amaliy foydalana olish malakalariga ega bo'lisch;
- umumiyo'rta ta'lim muassasasida ilmiy-uslubiy, tajriba-sinov ishlarini olib borish tartib-qoidalarini egallagan bo'lishi;
- adabiyot fanini o'qitish orqali o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish yo'llarini bilishi;
- yangi avlod kadrlarini tayyorlashda adabiyot fanining roli katta ekanligini bilishi. Adabiyot fani bo'yicha yangi tahrirdagi DTS va modernizatsiya qilingan o'quv dasturlari asosida UO'T mакtablarida tajriba-sinov natijalarini bilishi;
- adabiyot bo'yicha ilmiy-tadqiqot, metodik ishlarni olib borish talablarini bilishi, amaliyatga tatbiq eta olishi;
- adabiyot yo'nalishida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy pedagogik ta'limning davlat ta'lim standartlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- adabiyot sohasi bo'yicha yetuk mutafakkirlarning ma'naviy va ma'rifiy, madaniy meroslarini bilishi va ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan foydalanish

malakasiga ega bo'lishi;

- adabiyot yo'nalishidagi ilg'or ish tajribalarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalanish malakasiga ega bo'lishi;
- ona tili va adabiyot fanini o'qitish bo'yicha tajriba almashish va ilg'or tajribalarni ommalashtirish yo'llarini bilishi va hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari bilan tanish bo'lishi;
- sinf rahbari ishining mazmun va mundarijasini, shakl va usullarini bilishi va uni olib borish malakasiga ega bo'lishi;
- adabiyot fanidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, saralash va ularga tabaqalashgan ta'lim berish metodikasini bilishi;
- adabiyot bo'yicha muammolar, yangiliklar, kashfiyotlar, ilmiy izlanishlar, milliy va jahon pedagogikasi taraqqiyotidagi tadqiqotlar haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- umumiyo'rta ta'lim muassasasida ilmiy-uslubiy, tajriba-sinov ishlarini olib borish tartib-qoidalalarini egallagan bo'lishi;
- adabiyot yo'nalishida va boshqa fanlar kesimida dars kuzatish, tahlil qilish malakasiga ega bo'lishi;
- umumiyo'rta ta'lim muassasasi pedagog xodimlarini attestatsiya qilish va toifalarini ko'tarish tartib-qoidalari haqida tushunchaga ega bo'lishi;
- mustaqil ravishda o'z malakasini oshirishning yo'l va usullarini bilishi va egallagan bo'lishi kerak.

## **2-bob bo'yicha xulosa**

Mustaqillik davrida yaratilgan 5-9-sinflar ona tili darsliklarida milliy mafkuramizning asosiy g'oyalari: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo samimiy munosabat va boshqalar, shuningdek, milliy istiqlol mafkurasingning tarixiy, falsafiy va iqtisodiy asoslari hamda uning milliy va umuminsoniy tamoyillari masalalari hisobga olingan va bu oljanob g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirishga qaratilgan bir qancha matnlar, suratlar va misollar bilan ta'minlangan.

O'qituvchi darsliklarda berilgan mavjud manbalar bilan cheklanib qolmasdan, kundalik hayotimizdagi o'zgarishlar, yangiliklar asosida ona tili mashg'ulotlariga yangidan-yangi materiallarni, matnlarni olib kirishi mumkin. Bayon va insho mashqlarini tanlashda, ularni yozishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida muallif istiqlol g'oyalarining aks ettirilishiga o'quvchilar diqqatini tortish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Milliy qadriyatlarni ongiga singdirishda shu ruhdagi diktant matnlarini tanlash ham katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilida ham dunyodagi barcha tillar kabi fikr faqat lingvistik yo'l bilangina emas, balki lingvistik bo'limgan (ekstralinguistik yoki paralingvistik) vositalar, imo-ishoralar hamda implitsit (bo'laklarga ajralmas) tovushlar yordamida ham ifodalanadi. Kishi jonli so'zlashuv nutqida ma'lum axborotni qisqa va lo'nda ifodalashda, fikrning emotsionalligini va tasirchanligini oshirishda holat va sharoitdan kelib chiqib, tilga yondosh bo'lgan imo-ishoralardan (noverbal vositalardan) foydalanadi.

O'qituvchining vazifasi fan materiallari bilan tanishtirishdangina iborat emas, balki o'quvchi og'zaki va yozma nutqini o'stirish, savodxonlikni oshirishdir.

Ta'limgazmuni chuqur anglagan, milliy g'ururlari, o'zbek ekanligidan faxrlanadigan, o'zbek millatning ruiyatini chuqur bilgan, bugungi pedagogik tafakkur talablari asosidagi kasbiy-ma'naviy fazilatlar sohibi bo'lgan, pedagogik mahorat sirlarini puxta egallagan o'qituvchigina o'quvchilar qalbiga yo'l topa oladi.

### **3-BOB. O'UVCHILARNING TIL KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH**

#### **3.1. Ona tili o'quv fani bo'yicha shakllantirilishi zarur bo'lgan tayanch va fanga oid kompetensiyalar**

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lган qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'naviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topish, mustail o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda "**Aqliy hujum**", "**Fikrlar hujumi**", "**Tarmoqlar**" metodi, "**Sinkveyn**", "**BBB**", "**Beshinchisi ortiqcha**", "**6x6x6**", "**Bahs-munozara**", "**Rolli o'yin**", FSMU kabi metodlar, texnologiyalar qo'llanmoqda. Shuning uchun umumta'lim maktablarida malakali kasb egalarini tayyorlash, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ijodkorlikka o'rgatishda zamonaviy o'qitish metodlari – innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Ta'kidlash joizki, o'quvchi-yoshlarga zamon talablari darajasida bilim beruvchi pedagog, avvalo, o'zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo'lishi va ularni amaliyotda tatbiq eta olishi zarur.

Ona tili ta’limida o’quvchi shaxsni fikrlashga, o’zgalar fikrini anglash va shu fikrni og’zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o’rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo’lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol to’tirish asosiy o’rin egallaydi.

**Ona tili o’quv predmetida:**

Mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyasi

Nutqiy(lingvistik) kompetensiya

Sotsiolingvistik kompetensiya

Pragmatik kompetensiya

**Predmetga oid kompetensiyalar (tasdiqlangan variantda)**

Ona tili o’quv predmetida:

**Nutqiy kompetensiya** (*tinglab tushunish, so’zlash, o’qish, yozish*):

**Lingvistik kompetensiya** (*fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid*):

Ishni nimadan boshlash kerak? Mashg’ulotlarni olib boradigan pedagog o’qituvchi mazkur fandan kompetentlik yondoshuviga asoslangan DTS va o’quv dasturini sinchiklab o’rganib chiqishi kerak. Bunda har bir o’quv fani bo’yicha shakllantirilishi zarur bo’lgan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni o’quvchilar yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda sinflarga taqsimlab chiqilishi zarur. Hozirda bu ish o’quv dasturlarida keltiriladi. Lekin mazkur kompetensiyalar yarim yillik va yil oxiridagi natija ko’rinishida berilmoqda. Shunga ko’ra pedagog ularni taqvim mavzu rejada maydalab ko’rsatishi zarur bo’ladi. Shu bilan birga o’quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda qo’llaniladigan samarali usul, metod va texnologiyalarni tanlashlari kerak bo’ladi.

O’quvchilarda ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda ularning qiziqishi, ehtiyojini hisobga olish zarur. Buning uchun esa o’qituvchi tomonidan pedagogik tashxis o’tkazish yaxshi natija beradi.

Hozirgi davrda **pedagogik tashxis** quyidagi yo’nalishlarda o’tkaziladi:

– **didaktik tashxis** bunda o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarni

egallaganlik darajasi;

- ***ruhiy-pedagogik tashxisda esa*** ta'lim jarayoni sub'ekti bo'lgan o'quvchining ehtiyoji, shaxsiy xususiyati va o'zini tuta bilishi o'r ganiladi;
- ***ijtimoiy-pedagogik tashxisda*** o'quvchining tarbiyasiga ta'sir etuvchi oiladagi, maktabdagi, maktabdan tashqaridagi muhit o'r ganiladi;
- ***boshqarish bo'yicha tashxisda*** maktabda va sinfda o'quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishi, pedagogik jamoaning malakasi, metodik xizmat va texnika vositalarining mavjudligi (jumladan fan xonasining jihozlanishi) o'r ganiladi.

Tashxislar ishonarli va to'laqonli bo'lisi uchun ular quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- tashxislash ishiga ta'limning barcha ishtirokchilari (ota-onalar, fan o'qituvchilari, sinfdoshlar) jalg etilishi kerak;
- tashxislashni iloji boricha turli usullar-so'rov nomalari, suhbat, kuzatish, test, o'z-o'zini tashxislash orqali o'tkazish lozim;
- qayta aloqa bo'lisi va baholash jarayoni doimiy ravishda muhokama qilinishi kerak;
- shaxsiy xarakterlari hisobga olinishi kerak. Bunda o'tkazilgan tashxis natijasi oldingisi bilan solishtirilishi va ijobiy(salbiy) o'zgarishlar e'tirof etilmog'i lozim;
- tizimlilik, tashxislash butun o'quv yilini qamrab olishi kerak;
- barcha o'quvchilar, ularning ota-onalari, mutaxassislar va boshqalarga o'quvchilar nimalarni bilishi, qanday ko'nikma va malakalarga ega bo'lisi oshkor bo'lisi kerak.
- boshlang'ich tashxisni o'quv predmeti yangidan boshlanadigan sinflarda o'quv yilining birinchi yarmida, so'ngra har chorak oxirida o'tkazish maqsadga muvofiq. Qolgan sinflarda har chorakda o'tkaziladi;
- o'quvchilarning ta'limga bo'lgan ehtiyojini o'r ganish usullari. Usullardan biri bu *kuzatishdir*. Kuzatish ishlari darsda va darsdan tashqari paytlarda ham o'tkazilishi kerak. Bunda qaysi mavzudagi kitoblarni ko'proq

o'qishi, qanday to'garakka qatnashi, sayohatga chiqqanida, muzeyga borganida, ko'rgazmalarda bo'lganida o'zini tutishi ham hisobga olinadi;

—o'quvchining qiziqishi va ma'qul ko'radigan faoliyati bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar tarkibiga kiruvchi bilim, ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyojlarini kuzatish jarayonida aniqlash kerak. Masalan, axborot bilan ishslash kompetensiyaga ehtiyoji bor o'quvchi fizika bo'yicha qo'shimcha axborotlarni qayerdan olish mumkinligini so'raydi. Tajriba-namoyishlarini kuzatishga qiziqadi. Uy vazifasi sifatida tajriba o'tkazishni tanlab oladi.

### **Tashxislash varag'i.**

Tashxislash natijalarining ishonarlilagini oshirish maqsadida o'quvchilarga o'z-o'zini *tashxislash varag'ini* to'ldirish tavsiya qilinadi. O'quvchi ota-onalari yordamida bu varaqlarda yozilgan tayanch kompetensiyalarga tegishli bilim, ko'nikma, malaka va amaliyotda qo'llash tajribalariga oid joylarini to'ldiradi.

O'quvchining qiziqishlari, tayanch kompetensiyada belgilangan ehtiyojlari, o'quvchi ma'qul ko'radigan faoliyat turlari aniqlanganidan so'ng, o'qituvchi oldiga mazkur talablarni qanday bajarish vazifasi qo'yiladi. O'zbek tiliga kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi va barcha ta'lim bosqichlari uchun davlat ta'lim standartlarini xalqaro talablar darajasiga muvofiqlashtirgan holda takomillashtirilishi hamda sertifikatlashtirish tizimining yo'lga qo'yilishi ta'lim tizimimizdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, mustaqil O'zbekistonimizning davlat tili bo'lgan o'zbek tili ta'limi samaradorligini oshirish, davlatimiz tomonidan oldimizga qo'yilgan ta'lim bosqichlarini sifatlari bilan ta'minlash, ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatni oshirishdek ma'suliyatli vazifalarning bajarilishini ta'minlashga yordam beradi.

### **Tayanch kompetensiyalarni qachon, qanday shakllantirish mumkin?**

Tayanch kompetensiyalari tarkibiga kirgan kommunikativ kompetensiyani joriy nazoratlar davrida og'zaki so'rov, uy vazifalarni bajarganligi, sinfdoshlarining tushuntirishlarini anglay olishi, bahsga kirishish kabilar orqali shakllantirilsa, axborot bilan ishslash kompetensiyasini darslik va

o'quv qo'llanmalar bilan ishlash, badiiy adabiyot, kinofilmlardan jarayon, hodisa, qonun hamda qoidalar qo'llanilgan vaziyatlar to'g'risida axborotlarni izlab topish, ularni tushuntirish orqali shakllantirish mumkin. Shu bilan shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi ham shakllantirilib boriladi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasiga oid ko'nikmalarni dars jarayonida guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar kabi usullarni qo'llab darslarni tashkil etishda hosil qilish mumkin. Umummadaniy kompetensiyalarni o'quvchilarda shakllantirish uchun fan sohasida buyuk kashfiyotlar qilgan olimlarning ibratomuz hayoti, fan rivojlanishi bilan insoniyatning umummadaniyati ham yuksala borishini ko'rsatish orqali amalga oshirilishi.

O'quvchilarga kasbiy kompetentlikni shakllantirishda til ta'limini o'qitish usullari tushuntiriladi. Kasbiy layoqat haqida tushuncha beriladi. O'quvchilarni ta'lim- tarbiya jarayonida kreativ fikrlashga va kasbiy kompetentlikka erishish uchun quyida keltirilgan elementlarni o'z ichiga qamrab olgan qator uslubiy yondashuvlar tizimini ham amalga oshirish mo'ljallangan:

- o'quvchilarni kreativ fikrlashini, kasbiy kompetentligini, ularning malaka va ko'nikmalarini diagnostika va monitoring;
- har bir o'quvchining individual ta'lim treaktoriyasiga asosan shaxsiy qobiliyatlarini rivojini e'tiborga olgan holda, uning shaxsiy sifat yuksalishlarini inobatga oluvchi maqsadli, darajali perspektiv kreativ fikrlash va kasbiy kompetentligini yuksaltirishga qaratilgan rejalar ishlab chiqish;
- innovatsion pedagogik texnologiyalar, uslublar, shakllardan foydalilanilgan holda o'quvchilarning kreativ fikrlashi va kasbiy kompetentligini shakllantirishning psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik shartlarini yaratish;
- o'quv jarayonini darsda va darsdan tashqari faoliyatlar (amaliyot, ishlab chiqarishdagi ekskursiyalar va boshqalar) orqali loyihalashtirish;
- o'quvchilar kreativ fikrlashi va kasbiy kompetentligini shakllantirishda o'quv – tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va korreksiyalash (tuzatish) orqali professor- o'quvchilarning shaxsiy pedagogik faoliyatini natijalar tahlili va

samaraliligi asosida baholash. O'quv-tarbiya jarayonini, talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan harakatlarni tizimli ravishda olib borilishi ularning kreativ fikrlashi va kasbiy kompetentligini rivojida katta ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi kompetensiyasi uning nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakasi, dunyoqarashi, e'tiqodi va barcha shaxsiy individual ijtimoiy 'sixologik sifatlarining namoyon bo'lishidir. Ta'lanning sifat va samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri, bu – oqituvchining o'z fani bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo'ladi. Bular:

- ilmiy bilish;
- gnoseologik bilish;
- pedagogik faoliyatni e'chillik, omilkorlik, mohirlik bilan bajara olish;
- har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini to'ishga ijodiy kreativ yondashish;
- ta'limi, tarbiyaviy ta'sir jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish;
- o'zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini, o'rganish va ichki psixologik zahirasidan samarali foydalanish orqali o'zini muttasil rivojlantirish.
- jamiyat va insonlarga, tabiatga borliqqa ijobiy emotSIONAL munosabatda bo'lish ijobiy pozitiv fikrlashga o'tish tajribasidan iborat.

“Ta'limgoh sohasida axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikasiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirish bugungi kunning taraqqiyot darajasini belgilab beradi. Bunda ilg'or tajribalarni nafaqat maktab, litsey va kollej, oliy o'quv yurtlari, balki har bir oila hayotiga kirib borishi uchun zamin yaratishning ahamiyatini chuqr anglash lozim”.

## **Ona tili o'qituvchisining bilim, ko'nikma, malaka va kopmetensiyalariiga qo'yiladigan talablar**

- ta'lism sohasidagi innovatsion faoliyat asoslarini;
- ona tili va adabiyot fanini o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni;
- ona tili va adabiyot o'qitishda qo'yiladigan hozirgi zamon talablarini bilishi;
- ona tili va adabiyot fanining mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligi va izchilligini ta'minlash;
- ona tili va adabiyot darslarida ta'lism resurslaridan foydalanish;
- o'qitish mazmuniga oid axborotlarni qayta ishlash, umumlashtirish va o'quvchilarga yetkazish ko'nikmalariga;
- ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash;
- ona tili va adabiyot darslariga qo'yiladigan zamonaviy talablar asosida darslarni tashkil etish malakalariga;
- zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish;
- ona tili va adabiyot fani nazariyasi va uni o'qitish metodikasi yutuqlari, fanning texnika va ishlab chiqarishga qo'llanishi bo'yicha tadqiqotlaridan xabardor bo'lish kopmetensiyalariiga ega bo'lishi lozim.

### **3.2. Til kopmetensiyalini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar**

Olib borilayotgan o'quv-tarbiyaviy ishlarning samarali natijasiga erishmoq uchun o'quv jarayonining boshlanishidayoq o'quvchi qanday kompetensiyalarni egallashi lozimligini aniq belgilab olish kerak bo'ladi. Odatda o'quvchining egallaydigan kompetensiyasi oddiydan murakkabga qarab rivojlanib boradi.

Kompetensiyaviy ta'lism konsepsiysi til ta'limi oldiga yoshlarda lingvistik, nutqiy, mustaqil va ijodiy fikrlash, pragmalingvistik singari

kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini qo'yadi.

O'quvchining nutqiy kompetensiyasi muayyan til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir. Nutqiy kompetensiya o'quvchilarning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sohalarga oid bilimlarni o'zlashtirishi va ulardan nutqiy vaziyatga muvofiq o'rinni foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishiga qarab belgilanadi. Til kompetensiyasiga psixologik nuqtai nazardan ikki asosiy tarkibiy qismdan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Ular shaxsning aloqalarashuv va faoliyat jarayonida olgan til haqidagi bilimlaridir. Nutqiy tajriba ona tilini amaliy bilish, oilada, ko'cha-ko'yda, jamoat joylarida boshqalardan eshitish orqali maydonga keladi. Til haqidagi bilim maxsus dastur asosida ta'lim muassasalarida o'qitish orqali shakllantiriladi. Imo-ishora, mimika singari paralingvistik vositalar ham nutqiy tajriba asosida o'zlashtiriladi. So'zlovchi til haqidagi bilim asosida nutqiy faoliyatga kirishsa-yu, lekin nutqiy tajriba asosida hosil bo'ladigan bilimga yetarli ega bo'lmasa, uning lingvistik kompetensiyaga to'liq ega emasligi bilinib qoladi.

Nutqiy kompetensiya – notanish matnni ifodali o'qiy olish, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki bayon qila olish, fikrni yozma ravishda izchil ifodalay olish darajasi hisoblanadi.<sup>24</sup>

Nutqiy kompetensiya til ta'limining quyidagi 4 amali bo'yicha: tinglab tuShunish bo'yicha (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish); gapisish bo'yicha (monologik, dialogik og'zaki nutq turlarida o'z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish); o'qish bo'yicha: mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni) o'qish; yozish bo'yicha (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog'ozlarini yuritishni bilish).

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun boshlang'ich ta'limdanoq

---

<sup>24</sup> Namangan davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasи, Filologiya va zamонави pedagogic texnologiyalar.: "Namangan" nashriyoti, 2016.–B.42

o'quvchilarga turli mavzulardagi matnlar bilan tanishtirish kerak. O'quvchilar uchun notanish bo'lgan matn 3 marta o'qib eshittiriladi, o'quvchilar matn mazmunini eslab qolib, u haqda ma'lumot berishlari, og'zaki tarzda aytib berishlari lozim. O'quvchi og'zaki tarzda gapisishi uchun fonetika, leksikologiya, morfologiya, punktuatsiya kabi tilshunoslik bo'limlarini yaxshi bilishi, nutq so'zlaganda xatolarga yo'l qo'ymasligi lozim. Buning uchun o'qituvchilardan tilshunoslik bo'limlarining har birini chuqrur o'rgatilishi talab qilinadi.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarida nutq madaniyati fanining o'tilishi o'quvchi nutqini rivojlanishi uchun eng asosiy vazifani o'taydi. Ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish uchun nutq faoliyatini shakllantirish eng asosiy omillardan biri hisoblanadi.

“Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtaqidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir.”<sup>25</sup>

Hozirgi ta'lim metodikasida o'quvchilarning nutq faoliyati, ya'ni og'zaki va yozma nutqlariga katta e'tibor berilmoqda. Chunki o'quvchilarning texnika davrida kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlari sustligi va yozma nutqlari ustida ishlamasligi sabab bo'lmoqda. Bu holatni faqat dars davomida emas, balki turli muloqot jarayonlaraid ham kuzatish mumkin. Buning natijasida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlari DTS talablariga javob bermaydi.

Nutqni rivojlantirishda rollarni ijro erish ham katta samara beradi. Masalan, 5-sinf adabiyot darsida o'quvchilarning fikrlash qobiliyati va nutqini shakllantirish maqsadida “O'zbek xalq ertaklari”ni” rollarga bo'linib ijro etish” yoki “Venn” diagrammasidan foydalanish orqali amalga oshirish mumkin. Bu o'quvchilarni fikrlashga, taqqoslashga va nutqlarini o'stirishga

<sup>25</sup> Karimov I.A Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch.Toshkent.:”O'zbekiston” nashriyoti. 2008.–B.83

yordam beradi. O'quvchilarertaklardagi obrazlarni rollarga kirib bajaradilar, ertakka yangi yakun to'ib ijodiy yondashadilar. Bunda Janni Rodarining ertakchilikdagi uslubidan foydalanish mumkin. O'quvchilar o'yin sharti bilan tanishtirilib namuna ko'rsatiladi.

Dialogik va monologik nutqni rivojlantirish. Mashqlarining ikki turi **dialogik** va **monologik nutqni** rivojlantirishga qaratiladi. Ammo ona tili darslarini kuzatganimda va tahlil qilganimda Shuni ko'rsatdiki, og'zaki nutq g'zaki nutq malakalarini shakllantirishdanutq faoliyatining bu ikki turini o'rgatish uchun mo'ljallangan mashqlarning soni va mazmuni tubdan farq qiladi. Aniqrog'i, darslarda nutqning monologik shaklini o'rganishga asosiy e'tibor qaratilgan. Buning asosiy sabablaridan biri Shundaki, dialogik shakldagi nutq kundalik muloqotda ko'proq qo'llaniladi .O'quvchilar nutqning bu turiga xos bo'lgan malakalarini tabiiy muloqot jarayonida egallaydilar. Shunday bo'lishiga qaramay, dialog shaklidagi nutqni ona tili darslarida chuqurroq o'rgatishni ta'minlash lozim. Zero, og'zaki nutqning bu shakli ham bir qator nozik.

Masalan, “**Berilgan dialogning mazmunini tahlil qilish**” usuli bo'lib, bunda avval dialog o'qib chiqiladi va savollar berilib, o'quvchilarning diqqatini suhbatning mazmuniga qaratiladi. Bunda o'quvchilarning fikrlash qobiliyatları va og'zaki nutqlari shakllanadi. ‘**Berilgan dialogni takomillashtirish**’ usuli. Mashqni bajarishda o'quvchilar dialog matnini o'qib chiqishlari, so'ngra ana shu suhbatda ishtirok etgan personajlarning maqsadlarini to'laroq amalga oshirish uchun ularning nutqiga qanday o'zgartirishlar kiritish lozimligi haqidagi mulohazalarini bayon qilishlari kerak.

“Turli vaziyatlar tasvirlangan rasmlar asosida dialog tuzish” usuli. Bunday mashqlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan rasmlarda muayyan hayotiy muloqot vaziyatlariga asos bo'ladigan voqealar tasvirlangan bo'lishi lozim. O'quvchi rasmning mazmuniga suyangan holda unda tasvirlangan personajlarni aynan shu holatda odatda nimalar haqida gaplashishi mumkinligini tasavvur olishi kerak. Bundan tashqari rasmlarda kutilmagan vaziyatlar ham tasvirlangan

bo'lishi mumkin. Bunday rasmlar asosida dialog tuzishda o'quvchilar shu vaziyatda o'tadigan suhbatning bir necha variantini taklif qilishlari, so'ngra ana shu variantlardan eng yaxshisini tanlab olishlari mumkin.

Bunday usullardan foydalanishdan asosiy maqsad vazifalar quyidagilar:

O'quvchilarning mustaqil, ijodiy, tanqidiy va mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy to'shiriqlar asosida yechish.

O'z-o'zini fikrlashga majbur etish.

Faollashtirish.

O'quvchilarni tashkilotchilikka va yo'naltiruvchilikka undash.

Do'stona munosabatni shakllantirish.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, o'quvchi nutqini yaxshilash kabi vazifalar biz o'qituvchilarning zimmamizda ekan, aynan biz bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilari kuchli mas'uliyatni his etgan holda o'z bilim va ko'nikmalarimizni oshirishimiz zarur. O'quvchi qachon yuksaladi, qachonki o'qituvchisi yuksak bilimga ega bo'lsa, uni tog'ri yo'naltira olsagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shuning uchun ham tilshunoslik bo'limlarini o'rgatishda interfaol usullardan foydalangan holda, qiziqarli dars o'tib, fan va o'tilayotgan mavzuga o'quvchi yoki talabani qiziqtira olish o'qituvchining vazifasi hisoblanadi.

Lingvistik kompetensiya deganda til sistemasi haqidagi bilimga, lingvistik tafakkurga, yangi til vaziyatlarida bilim va ko'nikmalarini mustaqil qo'llay olish tajribasiga ega bo'lgan xislatlar tushuniladi. Lingvistik kompetensiya o'quvchining ona tili fanining fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya, punktuatsiya, stilistika singari bo'limlari haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish malaka va ko'nikmasidir. Lingvistik kom'etentlik butunlik sifatida bir necha struktur komponentlardan tashkil topadi. Eng avvali, ona tili fani haqidagi bilim va malaka o'rtasidagi munosabatdan iborat. Ona tili haqidagi bilim esa o'zbek tilining funksiyasi; ona tili fanining bo'limlari, til sistemasi va uning birliklari,

bu birliklarning ma’no va vazifalari, so’z turkumlari va ularning o’ziga xos xususiyatlari, gap bo’laklari va gapning ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko’ra turlari, ularning uslubiy belgilari, imloviy xususiyatlari sistemasidan tashkil topadi. Lingvistik kompetensiya o’quvchilarning orfografik, punktuatsion qoidalardan turli vaziyatlarda o’rinli foydalana olish malaka va ko’nikmasini ham o’z ichiga oladi.

Odatda, har bir xalqning madaniyatlilik darajasi uning savodxonlik darajasi bilan belgilanadi. Savodxonlik darajasi esa, nafaqat o’qish-yozishni bilish bilangina emas, balki so’zlarni qanchalik to’g’ri yoza olish qobiliyatiga ega bo’lish bilan o’lchanadi.

Mustaqillik sharoitida mamlakatimizning xalqaro nufuzining ortishi, davlat tili bo’lgan o’zbek tilining ham xalqaro mavqeい ko’tarilishiga olib keldi. Dunyo miqyosida bu tilni o’rganishga qiziquivchilar soni tobora ko’payib bormoqda. Ayni paytda axborotlar oqimi nihoyatda kuchaygani natijasida aholining orfografik savodxonlik darajasini oshirishga ehtiyoj ortmoqda. Bu esa, orfografik malakali shaxsni tarbiyalash muammosini yuzaga keltirmoqda. Orfografiyani o’qitish ilgari ham ona tilini o’qitishda eng ustun yo’nalish bo’lib kelgan. Lekin o’quvchilarning orfografik qoidalar haqidagi bilimi majmuuni shakllantirish bilan cheklangan. Orfografik malaka va ko’nikmaga ega shaxs deganda o’quvchining maktab dasturi asosida orfografiya qoidalari bo’yicha egallagan bilimlaridan turli vaziyatlarda o’rinli foydalana olish imkoniyatiga ega shaxs tushuniladi. Darslik, orfografik lug’atlarda berilgan ayrim harflarning imlosi, qo’shma, juft va takroriy so’zlarning imlosi, ayrim qo’shimchalarning imlosini puxta o’zlashtirish va ulardan turli vaziyatlarda (xat, ma’lumotnama, dalolatnama, qaror, majlis bayoni, maqola yozish singari) o’rinli foydalanish malaka va ko’nikmasining shakllanishi orfografik malaka va ko’nikmaga ega shaxsning tarbiyalanganini bildiradi.

Fikrni tog’ri va aniq ifodalashda ‘unktuatsion malaka va ko’nikma katta ahamiyatga ega. punktuatsiyaga oid bilimlar lingvistik kompetentlikning tarkibiy qismi bo’lib, o’quvchining tinish belgilari haqidagi bilimi va undan

muayyan nutq vaziyatlida o’rinli foydalana olish imkoniyati sanaladi.

2. Lingvistik kompetensiya: kundalik hayotda faol qo’llaniladigan ijtimoiy mavzularga oid va kasb-hunarga yo’naltirilgan lug’at boyligini oshirib borish, o’zbek tilining so’z yasalishi vositalarini bilish lug’at boyligini oshirib borishdan iborat bo’lib, bularning barchasi o’zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo'yicha nazariy bilimlarni muayyan izchillikda egallash vositasida amalga oshiriladi.

Maqol, matal, iboralar, aforizm va boshqa barqaror birikmalarni bilish, ularni nutqda tog’ri vaziyatlarda qo’llay olish imkonini beradi. Bilamizki nutqda barqaror birikmalarning ishlatalishi, nutqni yanada chiroyli qilish bilan bir qatorda uning ahamiyatini ham oshiradi. Maktab ta’limida 5-sinf adabiyot darsligida maqollar o’rgatiladi. O’qituvchi darslikda berilgan maqollarni ma’nosini o’quvchilarga to’g’ri tahlil qilib berishi lozim, aks holda nutqda noto’g’ri qo’llab katta xatoga yo’l qo’yishlari mumkin. Dars davomida interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Davom ettir”, “Maqolni tahlil qil” kabi usullardan foydalanish mumkin.

“Davom ettir” usulidan foydalanish uchun guruh ikkiga bo’linadi. Guruhlarga nom beriladi. Doskaga guruhlar nomi yozib qo’yiladi. Guruhlarning har bir ishtirokchisiga bittadan maqol aytildi, masalan, “Bilagi zo’r birni yiqar,...”, “Mehnat, mehnatning...”, “Mehnat qilib to’ganing...”, “Yer haydasang kuz hayda,...” kabi. Guruh a’zolarining har bir to’gan maqollariga 1 baldan beriladi va doskaga yozib qo’yiladi. Dars so’ngida ballar hisoblanadi va g’olib guruh taqdirlanadi. Shu tariqa o’quvchilar o’z xotiralarini charxlab oladilar va kop’lab maqollarni yod oladilar. Bu esa har xil vaziyatlarda nutq so’zlaganlarida nutqlarini chiroyli tarzda bayon etishlariga yordam beradi.

O’quvchida erkin fikrlay olish, o’z nutqini aniq va ifodali qilib tuzishi uchun barcha tilshunoslik bo’limlarini bilishi talab qilinadi. Shuningdek, ijodiy fikrlay olishi lozim. “Maqolni tahlil qil” usulida o’quvchining ijodiy qobiliyatini oshiriladi. Erkin, o’zi o’ylagan fikrni qoidalar asosida, to’g’ri so’z tartibida, mazmunan teng bo’lgan jumlalar tuzish orqali bayon qila olish imkoniyatini

oshiruvchi bu usullar hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida yaxshi natija berishi shubhasiz.

So'zlovchining tilning turli sath birliklaridan oqilona foydalanish mahorati, fikrni obrazli ifodalashda o'ziga xos usullarni qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lingvistik kreativlik hisoblanadi. Tilda bir fikrni turlicha shaklda ifodalash imkoniyati mavjud. Aynan qaysi shakli tanlash, muayyan muloqot vaziyati uchun mos ifodani topa olish ham so'zlovchining topqirlik, ijodiylik mahoratiga, kreativlik kompetensiyasiga bog'liqdir. Til faqat kishilar o'rtasidagi oddiygina aloqa vositasi emas, balki til egalarining o'zini qurshab turgan olamni bilish, qo'lga kiritgan bilimlarni kelajak avlodga yetkazish vositasi hamdir. Lisoniy birliklar vositasida axborot yig'iladi, saqlanadi va avloddan- avlodga o'tadi.

Qisqacha qilib aytganda o'quvchining mustaqil fikrlay olishi, olgan bilim va ko'nikmalaridan foydalangan holda ijodiy va tanqidiy fikr yurita olishi kreativlik kompetensiyasini tashkil qiladi.

Fikrlash bu o'qish, yozish, so'zlash yoki tinglashga o'xshash jarayon bo'lib, u borliq to'g'risida fikr yuritishni o'z ichiga oladigan faol, uyg'unlashgan kompleks jarayondir. Fikrlash o'qitish dasturining umumiyligi tub ma'nosi yoki kundalik hayot tajribasi, borliq olam vazifalari ijodiy tus oladi, erkin fikrlash va tanqidiy bo'ladi. Tanqidiy fikrlashga kimlar qodir? Tanqidiy fikrlash uchun, bildirilayotgan fikrni isbot qila olish, ilmiy baholash uchun aniq va to'liq bilimga ega bo'lish, taqqoslay olish kabi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish lozim.

Tanqidiy fikrlash insonni milliy axborotlarni, g'oyalarni tahlil qilish, izohlash, o'rganilayotgan ma'lumot bo'yicha o'zining shaxsiy taxminlarini qurish, umumlashtirishdir. Tanqidiy fikrlash, o'quv guruhida muammoli darslarni ma'lum qonuniyatlariga amal qilib borgandagina rivojlanadi. Tanqidiy fikrlashning muhim afzalligi, e'tiborsiz bildirilgan fikrlarni, noaniq tuShunchalarni va yolg'on dalillarni fosh qilishdir. U g'oyalarni mustahkamlaydi, biroq yaratuvchi fikrlash bilan ta'minlanmaydi. Tanqidiy

fikrlaydigan odamlarda quyidagi sifatlar kuzatiladi:

Rejalahtirishga tayyorgarlik, moslashuvchanlik, maqsadga intiluvchanlik, o'z xatolarini tuzatishga tayyorgarlik, anglash, kelishtiruvchi qarorlarni qidirish.

Tanqidiy fikrlashga o'rgatishda guruhli ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki guruhli tanqidiy fikrlash natijalari samarali bo'lishi amaliyotda o'z tasdig'ini topgan. Fikrlashning yuqori darajada samarali bo'lishi uchun muayyan shart-sharoitlarga e'tiborini qaratish zarur, Shuningdek, o'quvchilarni guruhli fikrlashda qatnashish imkoniyatlarini maxsus tarbiyalab borish kerak bo'ladi. O'qitish jarayonida guruhli fikrlashning ba'zi maxsus shart-sharoitlarini guruhli fikrlashga oid metodik talablar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- boshqani ham tushunish. Quloq solishga, boshqa odamning fikrini qisqa va lo'nda bayon etish;
- agar boshqa odamning fikrini tushunmagan bo'lsangiz, uni so'rang, savol berishga o'rganing;
- guruhdagi boshqa qatnashuvchining fikriga rozi bo'lmasangiz, uni nimani xato deb hisoblasangiz, aniq ga'iring;
- agar sizning fikringizga rozi bo'lmasa, qayta tushuntiring, lekin xatoni to'g'ri deb turib olmang;
- masalaning yechimidan har bir ishtirokchining manfaatdor ekanligini esdan chiqarmang. To'g'ri yechimning topilishiga yordam bering;
- e'tiroz bildirishdan avval, boshqaning vaziyatli masalani hal etishiga baho bering;
- vaziyatli masalaning umumiy yechimini tushunishga urining.

Keltirilgan talablar guruhli fikrlash sharoitida tarbiyalanishi lozim. Guruhnii fikrlashga o'rgatish jarayonida, umuman, guruhda ish olib borishning har qanday shaklida ham guruh ishida qatnashmayotgan har bir odamning individual imkoniyatlarini, intellektual va shaxsiy xususiyatlarini, o'zini namoyish etish shaklini tushunish zarur.

Jismoniy ko'nikmalarini egallash kabi, fikrlash ko'nikmalarini egallash uchun ham, maxsus o'qitish, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, natijalarga ega bo'lishga vaqt talab qilinadi.

Diologik ta'lif jarayonida talabalar tanqidiy fikrlashga murakkab masalalarni, holatini tahlil qilish, ma'lumotlarga tayanish orqali alternativ fikr yuritish ustida mulohaza yuritish, o'ylab xulosa chiqarish, munozaralarda faol qatnashish va boshqalar bilan muloqotga kirishishni o'rghanadilar.

O'qitish jarayonida "Qarorlar shajarasi", "Klaster", "Kubik", "Aqliy hujum", "Olti o'ylovchi qap'oqchalar" singari interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarni fikrlashga, boshqalar fikrini rad etish yoki qo'llab-quvvatlashga o'rgatadi. Fikrlash jarayonini faollashtirish vazifasini bajaruvchi ushbu metodlardan tizimli, uzluksiz va izchil foydalanish albatta o'z samarasini beradi.

Ta'lif jarayonida o'quvchilarning xilma-xil o'quv materiallarini hal qilishlari orqali izlanish g'oyasining joriy qilinishi ijodiy fikrlashga o'rgatish usullaridan biridir. O'quvchilar tafakkurining ijodiyligini shakllantirishda bu usuldan oqilona foydalanish nihoyatda samarali bo'lib, tadqiqotchilik ko'nikmalari va ishga ijodiy yondashishga yordam beradi.

Ta'lifning muammoli metodi nuqtai nazaridan ta'limgagi asosiy yo'nalishi o'quvchilarda o'quv to'shiriqlarini hal etish, bilish va ijodiy fikrlash faoliyatini shakllantirishdir. Ta'lif jarayonida yangidan yangi, murakkablashib boruvchi uzluksiz muammolarga daxldor ta'lif tashkil etiladi. Bunday ta'linda butun bir dars bitta asosiy muammoni hal etishga bag'ishlanishi ham mumkin. Yoki bir dars davomida o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materiali bir qancha izchil muammolarga bo'linishi ham mumkin. Muammolar ketma-ket hal qilingach, bilimlarni bir tizimga solish, umumlashtirish amalga oshiriladi. Muammoli ta'lif boshqa o'quv predmetlarida bo'lgani kabi, shubhasiz, ona tilini o'qitish jarayonini takomillashtirishda ham muhim yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin. Chunki u o'quvchilarning bilish faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirishga xizmat qiladi, darsga ijodiylik bag'ishlaydi va oxir-oqibatda

o'quvchilarning aqliy rivoji uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Metodist olimlar muammoli vaziyatlar yaratishning turli usullarini tavsiya etadilar. Masalan, A.G'ulomov va M.Qodirovlar ona tili darslarida muammoli vaziyat yaratishning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin, deb ko'rsatadilar:

1. Tilga oid dalillarni tahlil qilish asosida muammoli vaziyat yaratish.
2. Til hodisalarini qarama -qarshi qo'yish va taqqoslash asosida muammoli vaiyot yaratish.
3. Til hodisalarini umumlashtirish orqali muammoli vaziyat yaratish.
4. Berilgan matnning mazmunidan kelib chiqib, muammoli vaziyat yaratish.

Garchi, muammoli ta'lif turlicha tashkil etilsa-da, u hamisha ziddiyatlardan chiqish uchun faol izlanish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi dars jarayonida tovush, harf, so'z, gap va uning turlari, bo'g'in hamda nutqqa doir bilish muammosini qo'yishda o'quvchilar eks'erimental xarakterdagi ijodiy ishga jalb etiladi. O'qituvchi muammoli vaziyat yaratib o'quvchilarni uning hal qilinishi tomon yo'naltirar ekan, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi tafakkur jarayonlaridan biriga ongli ravishda jalb qilish orqali bilimlarni mexanik tarzda eslab qolishdan ongli o'zlashtirishga yo'l ochadi. Bunda muammoli izlanish metodi mantiqiy tadqiqot metodlari bilan qo'shilib ketadi va o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatuvchi usullardan yana biri – mustaqil ish metodidir. Nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki umuman ta'lif sohasida keng qo'llaniladigan o'quvchilarning ijodiy ishlari ta'lif samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida doimiy ravishda tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Metodist olimlar ijodiy ishlardan dars jarayonida keng foydalanishni doimo yoqlab chiqqanlar. Chunki o'quvchilarning bilimlarni egallash va ijodiy fikrlashga o'rgatish, avvalambor, ijodiy ishlarni bajarish, oldida turgan muammo va masalalarining yechimini

topish jarayonida shakllanadi. Shunday ekan, o'quvchilarning ijodiy ishlari nima degan savolga to'xtalib o'tmoq joiz. Unga turlicha javob bergenlar. Masalan, pedagogika fanlari doktori, professor A.G'ulomov ijodiy ishlarga shunday ta'rif beradi: "Ijodiy ishlar deganda biz, avvalo, o'qituvchining bevosita rahbarligida uyuşhtirilgan hamda o'quvchilarning ona tilidan egallaydigan nazariy bilimlari mustahkamlash va ko'nikmalarni takomillashtirishga xizmat qiladigan, ma'lum maqsadga qaratilgan faol ongli faoliyatni tushunamiz". Jumladan, S.Matjonov: "...ijodiy ishlar ta'lim-tarbiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati o'quv topshiriqlarining o'qituvchi ishtirokisiz, bevosita o'quvchi tomonidan bajarilishi bilan belgilanadi va asosan matn ustida ishslash orqali amalga oshiriladi, qo'shimcha adabiyotlatdan samarali foydalanishni nazarda tutadi" deb yozadi.

Zamonaviy oliy talim bitiruvchilarining kreativligi va kasbiy komponentligi davr talabidir. OTM bitiruvchisi o'z ish joyiga tayyor holda, ijtimoiy-iqtisodiy soha talablariga javob beruvchi mutaxassis sifatida yetib borishi masalasi dolzarbligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Bu muammo – talabalarga ta'lim berishda, ularda kreativ fikrlash, kasbiy kompetentligini shaklantirishda yangi yondashuvni, zamonaviy jamiyatda bitiruvchilarning shaxsiy sifatlarini, ular o'zlashtirgan bilim, malaka va ko'nikmalarini namoyon qilish imkoniyatlarini ochishdagи o'ziga hos hislatlarini shaklantirish, ularning bepoyon informativ oqimlar orasida o'zining to'laqonliligi va ilmiyligiga yo'naltirilganligini, jamiyatda o'z o'rınlarini topishda imkoniyatlarini kengaytirishdadir.

Kreativ fikrlash va kasbiy kompetentlik unga ijodiy yondashuvga zarur bo'lgan bilimlar, malaka, ko'nikma, qobiliyat va shaxsiy sifatlarni birlashtiruvchi tizimidan iboratdir. Bitiruvchining har qanday faoliyatida (kommunikativ, o'quv, tashkiliy) ijodiy kompetent mavjud. Kreativ fikrlashning asosiy tashkil etuvchisi talabaning bilim va ko'nikmasidan iborat ("bo'sh kalla fikrlamaydi").

Bu tashkil etuvchini kengaytirish, to'ldirish, albatta, birinchi navbatda

OTM professor-o'qituvchilari mahorati, ularning pegagogik faoliyatga yondashuvi bilan bog'liq. Bunda pedagoglarimizdan zamonaviy yondashuv talab qilinadi. Ular tomonidan ta'lif tizimiga zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan: informatsion-kommunikativ, muammoli ta'lif, loyihamiy faoliyat, turli darajali va rivojlantiruvchi talim kabi o'qitishning shakl va uslublariga asoslangan uslubiy va didaktik qo'llanmalar yaratish va joriy qilish talab etiladi.

Bundan tashqari bu jarayonga ota-onalarni ham jalb qilish borasida ham ishlar olib borish mo'ljallangan. Namangan viloyatining barcha tumanlarida ham shu singari uchrashuvlarni amalga oshirib, unda talabalarimiz ota-onalarining ishtirokini ham ta'minlash rejalashtirilgan, toki ota-ona ham o'z farzandi kelajagi uchun ham qayg'urishi, ham tarbiya jarayoniga o'z hissasini qo'shishiga erishish kerak.

Talim – tarbiya jarayonida kreativ fikrlashga va kasbiy kompetentlikka erishish uchun quyida keltirilgan elementlarni o'z ichiga qamrab olgan qator uslubiy yondashuvar tizimini ham amalga oshirish mo'ljallangan:

- talabalarimizning kreativ fikrlashini, kasbiy kompetentligini, ularning malaka va ko'nikmalarini diagnostikasi va monitoringi;
- har bir talaba (bitiruvchi)ning individual talim traektoriyasiga asosan shaxsiy qobiliyatlarni rivojini etiborga olgan holda uning shaxsiy sifat yuksalishlarini inobatga oluvchi maqsadli, darajali perspektiv kreativ fikrlash va kasbiy kompetentligini yuksaltirishga qaratilgan rejalar ishlab chiqish;
- innovatsion ‘pedagogik texnologiyalar, uslublar, shaklardan foydalilanilgan holda talabalarning kreativ fikrlashi va kasbiy kompetentligini shakllantirishning psixologo-pedagogik va tashkiliy-texnologik shartlarini yaratish;
- o'quv jarayonini darsda va darsdan tashqari faoliyatlar (amaliyot, ishlab chiqarishdagi ekskursiyalar va boshqalar) orqali loyihalashtirish;
- talabalar kreatif fikrlashi va kasbiy kompetentligini shakllantirishda o'quv-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va korreksiyalash (tuzatish) orqali professor-o'qituvchilarining shaxsiy pedagogik faoliyatini natijalar tahlili va

samaraliligi asosida baholash.

O'quv-tarbiya jarayonini, talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan hakaratlarni tizimli ravishda olib borilishi ularning kreativ fikrashi va kasbiy kompetentligini rivojida katta ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik – pedagogik ijodkorlikning asosi sifatida. Oliy ta'lim pedagog kadrlarining kreativ potentsiali tushunchasi va mohiyati. pedagoglarda kreativ kompetentlikni shakllantirishning zaruriy shart-sharoitlari, modellari. Kasbiy faoliyatda pozitiv-faol motivatsiya va pedagog kadrlarning kreativ potentsialini baholash mezonlari. Ta'limni axborotlashtirish sharotida pedagog kadrlar kreativ imkoniyatlarini baholash mezoni.

Har bir shaxs lisoniy qobiliyatga ega. Bu qobiliyat so'zlovchining faqat muayyan tildagi so'zlarini va ularning bog'lanish qoidalarini bilishi bilan cheklanib qolmaydi. Agar so'zlovchi lisoniy strukturalarni o'zlashtirsa-yu, ammo ulardan qanday va qaysi o'rirlarda foydalanishni bilmasa, lisoniy qobiliyatga to'liq egalik haqida fikr yuritib bo'lmaydi. Shuning uchun hozirgi kunda lisoniy qobiliyati kuchli shaxsni tarbiyalamoq uchun ta'lim jarayonida o'quvchilarining asosiy e'tiborini til sof ichki tuzilishini bilishdan tashqari, ularning har biridan qaysi vaziyatlarda qanday foydalanishni bilishga ham qaratish lozim bo'ladi. pragmalingvistika bevosita kompetensiyaviy ta'lim bilan aloqadordir.

Pragmatik kompetensiya kundalik hayotda o'zbek tilidan egallagan bilim, ko'nikmalari asosida muayyan nutqiy vaziyatda mustaqil muloqotga kirisha olish qobiliyatini, o'zaro suhbatlashish, suhbatga qo'shilish, suhbatdoshining nutqini sekinlashtirishga undashga oid muomala odobi vositalarini, tushunmovchiliklar paydo bo'lganda qayta so'rash, uzr so'rash orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish, tilning amaliy imkoniyatlaridan o'rini foydalana olish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Amerikada hukmron bo'lgan falsafiy pragmatizm yo'nalishining asoschilaridan biri Charlz Sanders Pirs (1839-1914) edi. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g'oyasi semiotik belgining (hu jumladan,

lisoniy belgining ham) ma’no-mazmunini ushbu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog’liq holda o’rganishdir.

Bu tamoyil muallifi Ch.Pirs birinchilardan bo’lib, belgi nazariyasi doirasida kommunikativ faoliyat subyekti omilini inobatga olish lozimligini uqtirdi. pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo’nalishi sifatida o’tgan asrning 60-70-yillarida shakllandi. 1970-yilda Dordrext shahrida "Tabiiy tillar pragmatikasi" (pragmatics of natural languages) mavzusida xalqaro konferensiya bo’lib o’tdi. Ushbu anjumanda o’qilgan ma’ruzalar to’plamining muharriri, Tell-Aviv universitetining professori M.Bar Hillelning "So’z boshi"da qayd qilishicha, anjuman ishtirokchilari yakdillik bilan "Tabiiy til vositasida bajariladigan muloqotning ‘ragmatik xususiyatlari ushbu muloqotning sintaktik va semantik xususiyatlari kabi so’zsiz, muloqot jarayonining asosiy maqsadi axborot uzatish va qabul qilishdir. Shu sababli bo’lsa kerakki, kommunikatsiya hodisasiga turli mualliflar tomonidan berilayotgan barcha ta’riflar asosida ijtimoiy kommunikasiyani insonlarning belgilar vositasida bajaradigan o’zaro "axborot - ma’no hamkorligi" sifatidagi talqini yotadi (Yakovlev 2006:10). Lekin muloqot maqsadi oddiygina axborot almashish bilan chegaralanib qolmaydi, axborot uzatishdan "hamkor"ga ta’sir o’tkazish, uni biror narsaga ishontirish, bo’ysundirish, harakatga undash maqsadi kutiladi. Bundan tashqari, semiotiklarning o’zlari e’tirof etganlaridek, aloqa vositasi bo’lmish belgilar so’zlovchi tomonidan o’z maylini, birovni yoki biror narsani yoqtirishini, noroziligini, hayratini va boshqa ruhiy tuyg’ularini izhor etish uchun ham qo’llanishini bilamiz. Lisoniy muloqotning xuddi shu jihatlari e’tiborga olingandagina semiotik tizimning qismlari o’zaro dinamik, harakatchan munosabatda bo’lishini tasavvur qilish mumkin bo’ladi. Nazariya doirasida o’rganilishi lozim", degan xulosaga kelishdi.

Shaxslararo munosabat faqatgina kommunikasiyadan iborat emas. Shuning uchun grammatik tizim va so’zlahuv faoliyati munosabatlari bilan shug’ullangan D.Frank "ekspressiv mazmun" (Aussagegexalt) mavjudligiga (yoki mavjud emasligiga) nisbatan kommunikativ va interaktiv faoliyatlarni

farqlashni taklif qiladi (Frank 1980: 36). Ushbu farqni izohlash uchun muallif boks musobaqasi qoidalariga murojaat qiladi. Uningcha, boks o'yini nokommunikativ munosabat misolidir, chunki har bir musht tushirishning "mazmuni" birdaniga aniq bo'lmaydi, o'yinda bajarilayotgan harakatlarning bahosi umum tomonidan qabul qilingan qoidalarga asosan beriladi. Bunday mushtlashish o'yindan tashqari muhitda yuz berganda esa, har bir musht ma'lum maqsad sari yo'naltiriladi.

"Sabab-motiv-maqsad" zanjiri nutqiy faoliyat rejasini shakllantiradi va uning voqelanishini ta'minlaydi. Xuddi shu narsa A.Kasherni pragmalingvistik tahlilning asosiy maqsadini "qo'yilgan maqsadga erishishda lisoniy vositalardan foydalanishni ta'minlovchi insonga xos bo'lgan qobiliyat qoidalarni" yoritish va tushuntirish deb tavsiflashga undaydi (Kasher 1979: 38).

Pragmalingvistikaga berilayotgan ta'riflarni qiyoslaganimizda, ularning barchasida ushbu soha predmetini yoritishda yetishmayotgan to'laqonlilikni, ayrim holda bir ta'rif ikkinchisida ifodalanayotgan mazmunga qandaydir bir "soya" tushirayotganligini sezamiz. Balki ushbu masalaga turli tomonlama yondashuv orqali "barcha sarhadlar bo'ylab hujum qilish" yo'li bilan umumiyl holatni, o'rganilayotgan hodisaning to'liq suratini tasvirlash mumkindir.

Ko'rib chiqqanimizdek pragmatik kompetensiya o'quvchini ona tili va adabiyot darslarida olgan mukammal bilimlaridan foydalangan holda ayrim nutqiy vaziyatlardan chiqishi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi uchun ham o'rganiladi.

Akademik litseylarda qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlar haqida o'rgatilishi ham pragmatik kompetensiya shakllanishiga olib boradi. Maktablarda esa tutuq belgisining ishlatalishi, uning ma'no farqlash uchun xizmat qilishi haqida mukammal bilim berilishi ham bunga misoldir. Masalan, sava-sa'va, davo-da'vo, san'at-sanat, qal'a-qala, she'r-sher, ta'na-tana, a'yon-ayon, ma'tal-matal, ta'-qib- taqib, kabi.

Tutuq belgisining qo'llanilishini o'rgatish uchun ayrim zamonaviy usullardan foydalanish mumkin. Masalan, "Oramizda kim yo'q", "Men kimga

kerakman”, “O’rnim qayerda ” kabi.

“Men kimga kerakman” usulida bitta o’quvchi tanlab olinadi. U yutuq belgisi bo’ladi. Guruh ikkiga bo’linadi. Doskaga ikki qator qilib so’zlar yoziladi, so’zlarning yoniga qavs ichida uning qaysi so’z turkumiga mansubligi yozib qo’yiladi. O’qituvchi gruhlarga so’zni ko’rsatib turadi. Tutuq belgisi (o’quvchi) “men kimga kerakman” deb savol beradi. Keyin o’quvchilar qaysi guruhga kerakli bo’lsa “sen bizga keraksan” deb javob berishadi.

Mustaqil va ijodiy fikrlash kopmetensiyanı shakllantirishda quyidagi topshiriqlarnı o’quvchiga berish samara beradi.

“Leksikologiya” bo’limini o’rganishda bolalar lug’atini boyitishning muhim choralaridan biri so’z va uning ma’nolari ustida ishlashga oid topshiriqlardir. O’qituvchi kartondan to’rtburchak (kub) yasaydi va uning har olti tomoniga ma’nosini izohlash murakkab bo’lgan bitta so’zni yozib qo’yadi. Chaqirilgan o’quvchi qur’ani tashlaydi va qaysi so’z chiqsa, o’sha so’zning ma’nosini izohlaydi yoki o’sha so’z yordamida gap tuzadi.

Bolalarning so’z boyligini oshirish maqsadida shu so’z turkumiga oid bo’lgan topshiriqlardan ham foydalanish mumkin. Masalan, “O’z o’rningni top” usuli. 5-6 o’quvchi sinf oldida chiqariladi va ularning qo’liga qo’shma so’zlarning bir o’zagi (masalan, ko’k.., gul..., obod kabi) tarqatiladi. Shu so’zlarning qolgan o’zaklari (masalan, sulton, ... yo’tal, ... bichak, ... beor, ... rahno, ...tojixo’roz, ... ko’rpa, ... tuvak, ... xayri, ... xona, ... chambar, ... qog’oz, ... g’uncha, ... dasta, yangi..., Hamza ..., Zafar ..., mehnat ... kabi) sinf o’quvchilariga tarqatiladi. Har bir o’quvchi o’z o’rmini aniqlab, qo’shma so’z hosil qiladi.

«Yoqqanini tanlang» deb nomlangan topshiriqda yuqorida yozilgan jumladagi so’zlarga ma’nodosh yoki uyadosh so’zlar topiladi va doskaga yozib boriladi. Masalan:

Ko’rkam	maktab	qurildi.
Ajoyib	ziyo maskani	qurib bitkazildi.
CHiroyli	o’quv dargohi	ishga tushdi.

Zamonaviy	ilm o'chog'i	ish boshladi.
Muhtasham	litsey	qad ko'tardi.
Uch qavatli	dorilfunun	ko'kka bo'y cho'zdi.
Salobatli	gimnaziya...	savlat to'kib turardi

Sonlarning ko'chma ma'nosi sharhlash (masalan, aza marosimini ifodalovchi uch, yetti, qirq so'zlari), ular yordamida gaplar tuzish, sonlar ishtirot etgan xalq maqollari (masalan, bir qo'y ketidan ming qo'y to'yadi. Bir qo'llab sochasan, ikki qo'llab o'rasan. Bir qo'chqorning shoxi singuncha, yuzta qo'yning boshi ketadi. Yetti o'lchab, bir kes kabilalar)ga misollar keltirish, ularning ma'nosini sharhlash kabi amaliy ishlar ham bolalarning so'z boyligini oshiradi.

“Son” so'z turkumini o'rganish jarayoni sonlarga oid tashkil etiladigan topshiriqlar, topishmoqlar va ijodiy yozma ishlar ham o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda muhim omil sanaladi. Bu topshiriq va topishmoqlar shubhasiz, sonlarning ichki ma'no guruhlari, mahlum bir ma'no guruhidagi so'zlardan boshqa bir ma'no guruhidagi so'zlar hosil qilish, sonlar sinonimiyasi, ularning imlosi kabi muhim masalalarga bag'ishlanadi. Bu so'z turkumini o'rganishda “Maktabimiz tarixi”, “Qishlog'imiz tarixi”, “Oilamiz tarixi” kabi mavzularda erkin insholar yozdirish samara beradi.

O'quvchilar nutqini fe'l-sinonimlar bilan boyitishga xizmat qiladigan quyidagi topshiriqlardan ham foydalansa bo'ladi.

“Topqirlar o'yini”. Sinf o'quvchilari 2 yoki 3 guruhga bo'linadi. O'yinni boshlab boruvchi guruh fe'llardan sinonimik qator hosil qilish mumkin bo'lgan mah'um bir so'zni aytadi. Qolgan guruhlar aytilgan so'zga ma'nodoshlar topib, uni davom ettiradilar. Masalan, ag'anadi-yumaladi-dumaladi; baholashdi-tortishdi- munozaralashdi; tanovul qildi-iste'mol qildi-totdi; mo'ljalladi-mo'ljal qildi; ko'zladi- chog'ladi-chamaladi-cho'tladi-taxmin qildi kabi.

“Kesimni tikla” o'yini. Birinchi guruh o'quvchilari gaplar tuzib, kesimni tushirib qoldirishadi. 2-guruh o'quvchilari tushirilgan so'zni, uning

ma'nodoshlarini topib, kesimni tiklaydilar. Masalan, Olimjon sezgirlik bilan oyoq tovushlarini.../ payqadi, sezdi, fahmladi/, Xalima onasining yuziga uzoq... / qarab qoldi, termildi, tikildi, boqdi, nigoh tashladi/.

Shunday qilib, fel so'z turkumini o'rganishda bu turkumga mansub so'zlarning ichki ma'no guruhlari ustida ishlash, o'quvchilarga tuShunarli bo'limgan fehllarning lug'aviy ma'nolarini sharhlash, bunday so'zlar yordamida gaplar qurish, berilgan fehllarga ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar topish, fehlning stilistik imkoniyatlaridan nutqda foydalanishiga oid ijodiy-amaliy ishlar bolalarning so'z boyligini oshirish va nutq jarayonida so'zdan to'g'ri hamda o'rinci foydalanish malakalarini kengaytiradi. Tayanch kompetensiyalar tarkibiga kirgan bunday kommunikativ kopmetensiyani joriy nazoratlar davrida og'zaki so'rov, uy vazifalarni bajarganligi, sinfdoshlarining tuShuntirishlarini anglay olishi, bahsga kirishish kabilar orqali shakllantirilsa, axborot bilan ishlash kopmetensiyasini darslik va o'quv qo'llanmalar bilan ishlash, badiiy adabiyot, kinofilg'mlardan jarayon, hodisa, qonun hamda qoidalar qo'llanilgan vaziyatlar to'g'risida axborotlarni izlab topish, ularni tuShuntirish orqali shakllantirish mumkin. Shu bilan shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlanish kopmetensiyasi ham shakllantirilib boriladi. Ijtimoiy faol fuqarolik kopmetensiyasiga oid ko'nikmalarni dars jarayonida guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar kabi usullarni qo'llab darslarni tashkil etishda hosil qilish mumkin. Umummadaniy kompe- tentsiyalarni o'quvchilarda shakllantirish uchun fan sohasida buyuk kashfiyotlar qilgan olimlarning ibratomuz hayoti, fan rivojlanishi bilan insoniyatning umummadaniyati ham yuksala borishini ko'rsatish orqali amalga oshirilishi mumkin.

### **3-bob bo'yicha xulosalar:**

1. Ona tili o'quv predmetida mustaqil va ijodiy fikrlash kopmetensiyasi, nutqiy(lingvistik) kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, pragmatik kopmetensiya ichida:

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish):

Lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid) muhim hisoblanadi.

2. Mashg'ulotlarni olib boradigan pedagog o'qituvchi mazkur fandan kompetentlik yondoshuviga asoslangan DTS va o'quv dasturini sinchiklab o'r ganib chiqishi kerak.

3. Til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishni maqsad qilgan o'qituvchi:

- ta'lim sohasidagi innovatsion faoliyat asoslarini;
- ona tili va adabiyot fanini o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni;
- ona tili va adabiyot o'qitishda qo'yiladigan hozirgi zamon talablarini bilishi kerak.

4. Ona tili va adabiyot fanining mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining uzviyligi va izchilligini ta'minlash; ona tili va adabiyot darslarida ta'lim resurslaridan foydalanish; o'qitish mazmuniga oid axborotlarni qayta ishlash, umumlashtirish va o'quvchilarga yetkazish ko'nikmalariga va ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash; ona tili va adabiyot darslariga qo'yiladigan zamonaviy talablar asosida darslarni tashkil etish malakalariga;

- zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish;
- ona tili va adabiyot fani nazariyasi va uni o'qitish metodikasi yutuqlari, fanning texnika va ishlab chiqarishga qo'llanishi bo'yicha tadqiqotlaridan xabardor bo'lish kompetensiyalariga ega bo'lisi lozim.

## Umumiy xulosalar

Ta’limga kopmetensiaviy yondashuv bu ta’limni bozor ehtiyojlariga muvofiq holga keltirishga harakat natijasi bo’lib, ta’lim natijasi sifatida o’quvchilarning o’zlashtirgan axborotlari yig’indisi emas, balki ularning turli vaziyatlarda egallagan bilimlaridan foydalana olish qobiliyati e’tiborga olinadi.

Biz tadqiqot ishini olib borish va yakunlash davomida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Nutqiy kopmetensiya muayyan til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir. Til metodistlarining ta’kidlashlaricha, nutqiy kopmetensiya tuzilishini ikki asosda: lingvistik va psixologik prinsiplar asosida belgilash mumkin. Lingvistik prinsipga ko’ra, til bir necha sohalarning (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) o’zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik ekan, nutqiy kopmetensiya ham o’quvchilarning shu sohalarga xos kichik sistemalarni o’zlashtirishi va ulardan nutqiy vaziyatga muvofiq o’rinli foydalanish ko’nikmasiga ega bo’lishiga qarab belgilanadi.

Til kopmetensiyasiga psixologik nuqtai nazardan ikki asosiy tarkibiy qismdan tashkil topgan sistema sifatida qaraladi. Ulardan birinchisi shaxsning aloqa-aratashuv va faoliyat jarayonida to’plagan ***nutqiy tajriba*** ma’lumotlari; ikkinchisi ta’lim muassasalarida maxsus o’qitish jarayonida olgan ***til haqidagi bilimlari***.

2. Nutqiy tajriba ona tilini amaliy bilish, oilada, ko’cha-ko’yda, jamoat joylarida boshqalardan eshitish orqali maydonga keladi. Bu mashxur psixolog L. S. Vigotskiyning ta’limning ikki turi: a) spontan va b) maxsus tashkil qilingan turlari haqidagi fikriga muvofiq keladi. Spontan ta’limda, L. S. Vigotskiyning obrazli tili bilan aytganda, bola “o’z dasturi bo’yicha” harakat qiladi. Atrof-muhitdan o’zi o’rganadi. Til haqidagi bilim esa, maxsus dastur asosida ta’lim muassasalarida o’qitish orqali shakllantiriladi.

3. Imo-ishora, mimika singari paralingvistik vositalar ham nutqiy tajriba asosida o’zlashtiriladi. So’zlovchi til haqidagi bilim asosida nutqiy faoliyatga kirishsa-yu, lekin nutqiy tajriba asosida hosil bo’ladigan bilimga yetarli ega

bo'lmasa, uning lingvistik kopmetensiyaga to'liq ega emasligi bilinib qoladi. Mashhur sharqshunos German Vamberi sharq tillarini, islom madaniyatini maxsus dastur asosida puxta o'rghanadi. Movarounnahr va Xurosonda ulamo sifatida katta izzat-ikromga sazovor bo'ladi. Lekin bir o'tirishda birgina harakati bilan musulmon emasligini sezdirib qo'yadi. Yoqimli musiqa ovozidan huzurlanib, oyog'ining uchini tebratadi. sharq ahli musiqadan zavqlanganini oyoq uchini qimirlatish orqali emas, boshini gorizontal chayqash orqali ifodalaydi. Demak, nutqiy kopmetensiya nutqiy tajriba va til haqidagi bilim munosabati bir butunligi asosida shakllanadi. Shunday ekan, o'quvchilarning nutqiy kopmetensiyasini shakllantirish jarayonida bu ikki tomonning o'zaro munosabatini hisobga olish katta ahamiyatga ega. Nutqiy jarayonda nutq oqimi bilan birgalikda unga qo'shimcha ravishda qo'llaniladigan so'zlovchining yuz, qo'l, ko'z, lab harakatlari, ovozning baland-pastligi singari turli xil paralingvistik vositalardan foydalanish malaka va ko'nikmasi spontan, bolalarda nutqiy muhitni bevosita kuzatish asosida "o'z dasturi bo'yicha" shakllansa, nutq oqimini to'g'ri ishga solish malaka va ko'nikmasi maxsus dastur asosida o'qish mahsuli sifatida maydonga keladi.

3. Nutqiy kopmetensiya o'quvchining notanish matnni ifodali o'qiy olish, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qila olish, fikrni yozma ravishda izchil ifodalay olish darjasini hisoblanadi.

4. Lingvistik kopmetensiya ijtimoiy hodisa va belgilarni sistemasi sifatida til haqida, tilning qurilishi va funksiyalashishi haqidagi o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmasi hamda bulardan turli vaziyatlarda foydalanish mahorati anglashiladi. Lingvistik kopmetensiya o'quvchining ona tili fani haqidagi bilimi va bu bilimdan amaliyotda foydalanish malaka va ko'nikmasi bo'lib, bu malaka va ko'nikma maxsus dastur asosida ta'lim muassasalarida o'qitish orqali amalga oshiriladi. Lingvistik kopmetensiya o'quvchining ona tili fanining fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya, punktuatsiya, stilistika singari bo'limlari haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish malaka va ko'nikmasidir.

Lingvistik kompetentlilik butunlik sifatida bir necha struktur komponentlardan tashkil topadi. Eng avvalo, ona tili fani haqidagi bilim va malaka o'rtasidagi munosabatdan iborat. Ona tili haqidagi bilim esa o'zbek tilining funksiyasi; ona tili fanining bo'limlari, til sistemasi va uning birlklari, bu birlklarning ma'no va vazifalari, so'z turkumlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, gap bo'laklari va gapning ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko'ra turlari, ularning uslubiy belgilari imloviy xususiyatlari sistemasidan tashkil topadi. Lingvistik kopmetensiya o'quvchilarning orfografik, punktuatsion qoidalardan turli vaziyatlarda o'rinni foydalana olish malaka va ko'nikmasini ham o'z ichiga oladi.

5. Har bir xalqning madaniyatlilik darajasi uning savodxonlik darajasi bilan belgilanadi. Savodxonlik darajasi esa, faqat o'qish-yozishni bilish bilangina emas, balki so'zlarni qanchalik to'g'ri yoza olish qobiliyatiga ega bo'lish bilan o'lchanadi.

6. Mustaqillik sharoitida mamlakatimizning xalqaro nufuzining ortishi, davlat tili bo'lgan o'zbek tilining ham xalqaro mavqeい ko'tarilishiga olib keldi. Dunyo miqyosida bu tilni o'rganishga qiziquvchilar soni tobora ko'payib bormoqda. Ayni paytda axborotlar oqimi nihoyatda kuchaygani natijasida aholining orfografik savodxonlik darajasini oshirishga ehtiyoj ortmoqda. Bu esa orfografik malakali shaxsni tarbiyalash muammosini yuzaga keltirmoqda.

Orfografiyanı o'qitish ilgari ham ona tilini o'qitishda eng ustun yo'nalish bo'lib kelgan. Lekin o'quvchilarning orfografik qoidalar haqidagi bilimi majmuini shakllantirish bilan cheklangan. Hozirgi kundagidek shaxs kopmetensiyasi darajasiga ko'tarilmagandi.

7. Orfografik malaka va ko'nikmaga ega shaxs deganda o'quvchining maktab dasturi asosida orfografiya qoidalari bo'yicha egallagan bilimlaridan turli vaziyatlarda o'rinni foydalana olish imkoniyatiga ega shaxs tushuniladi. Darslik, orfografik lug'atlarda berilgan ayrim harflarning imlosi, qo'shma, juft va takroriy so'zlarning imlosi, ayrim qo'shimchalarning imlosini puxta o'zlashtirish va ulardan turli vaziyatlarda (xat, ma'lumotnoma, dalolatnoma,

qaror, majlis bayoni, maqola yozish singari) o'rinli foydalanish malaka va ko'nikmasining shakllanishi orfografik malaka va ko'nikmaga ega shaxsning tarbiyalanganini bildiradi. Ona tili ta'limining bosh vazifalaridan biri ana shunday shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

8. Punktuatsion kompetentlilik o'quvchining tinish belgilari haqidagi bilimi va undan muayyan nutq vaziyatida o'rinli foydalana olish imkoniyati sanaladi. Fikrni to'g'ri va aniq ifodalashda punktuatsion malaka va ko'nikma katta ahamiyatga ega. Masalan, Sobirjon keldi gapida "Sobirjon degan shaxsning kelgani" haqida axborot berilsa, Sobirjon, keldi gapida "qandaydir shaxsning kelgani to'g'risida Sobirjon degan shaxsga ma'lumot berilayotgani" haqidagi axborot ifodalananadi. Birinchi gapda bitta subyekt va shu subyektning harakati ifodalansa, ikkinchi gapda ikkita subyekt ishtirok etadi. Birinchi subyekt tinglovchi, ikkinchi subyekt gapdan anglashilgan harakatning ijrochisi sanaladi. Gapni tashkil etgan so'zlar bir xil bo'lgani holda, bitta vergul gapning sintaktik tuzilishini ham, mazmuniy tuzilishini ham o'zgartirib yubormoqda. Ularni yozuvda to'g'ri ifodalashga shaxsning punktuatsion ko'nikmasi xizmat qilmoqda.

9. Ona tilini o'qitishga kopmetensiyaviy yondashuv yoshlarni til haqidagi bilimlar bilan birga, muammoli vaziyatlarda bu bilimlardan o'rinli va maqsadga muvofiq ravishda foydalana olish qobiliyatiga ega shaxs sifatida tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun ham ona tili o'qituvchisining bosh vazifasi faqat bilimga ega yoshlarni tarbiyalash emas, balki bu bilimlarga ega bo'lish bilan birga ulardan muammoli vaziyatlarda o'rinli foydalanish malaka va ko'nikmasiga ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i lozim.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

### **I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017.

### **II. Ilmiy va badiiy asarlar:**

1. Abdullaeva Sh. Ta'linda o'qituvchi shaxsi va o'quvchi faoliyatini uyg'unlashtirish texnologiyalari // Molodoy uchyon, 2016. 9-son.
2. Abduqodirov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologi- yalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002. № 4, B.60-73
3. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. –T.: 2005. B.3-26.
4. Ahliddinov R.S. Maktabni boshqarish san'at. –T.: Fan, 2006.
5. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Akademiya, 2000. B.631.
6. Angelovskiy K. Uchitelya i innovatsii. Kniga dlya uchitelya. Perevod s makedonskogo V.P.Didenko – M.: Prosveopenie. 1991.
7. Anisimov V.V., Groxolgskaya O.G. Podgotovka buduopix uchiteley po predmetam pedagogicheskogo tsikla // Pedagogika. 2000. № 9 S.50-60.
8. Aytmatov Ch., Shoxonov M. Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori. – T.: Sharq, 1998.
9. Azizzoxo'jayeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000.
10. Baubekova G. Pedagogicheskoe masterstvo. –T.: 2000.
11. Bekmirzaev N. Notiqlik asoslari. – T.: Fan, 2006.

12. Bekmirzaev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. – T.: Fan, 2007.
13. Dolimov U. Inshoni qanday yozish kerak? – T.: 1972.
14. Dolimov U. Tinglovchilarni inshoga tayyorlash. –T.: 1991.
15. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. –T.: Ilm-Ziyo, 2012.
16. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –T.: Nihol, 2013, 2016.
17. Ismatov S. O’rta maktabning yuqori sinflarida insho. – T.: 1973.
18. J.Koller. Adabiyot nazariyasi va qisqacha adabiyotshunoslikka kirish. – OUP: Buyuk Britaniya, 2011.
19. Jo’raqulov U. Hududsiz jilva. –T.: Fan, 2006.
20. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi (o’quv qo’llanma) –T.: Muhamarrir, 2011.
21. Litnevskaya Ye.I., Bagryantseva V.A. Metodika prepodavaniya russkogo yazika v sredney shkole. – M.: Akad.proekt, 2006.
22. Madaev O. Insho qanday yoziladi? –T.: 1991.
23. Madaev O. va boshqalar. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – T.: Turon zamin ziyo, 2017.
24. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo’llarini izlab...//O’zbek tili va adabiyoti, 2012. 5-son, B.3-16.
25. Maren-Griesebach. Methoden der literaturwissenschaft. -Stuttgart.: “Grotesk”.
26. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
27. Nazarov K. O’zbek tili va adabiyotidan baho meeyori (V-XI sinflar uchun). –T.: O’qituvchi, 1990.
28. O’zbek adabiy tanqidi. Antologiya. – T.: Turon-iqbol, 2011.
29. Qodirov P. Til va el. –T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005.
30. Rasulov A. Badiiy asarga yondashuv asoslari. Filolog-magistrlar

uchun o'quv qo'llanma. -T.: Universitet, 2003.

31. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.

32. Voiteleva T.M. Teoriya i metodika obucheniya russkomu yaziku. – M.: Drofa, 2006. Dolimov U., Ahlamova M. Insho ustida ishlash. –T.: 1987.

### **Elektron ta'lim resurslari**

[www.edu.uz](http://www.edu.uz) - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti

[www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz) - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

[www.edu'ortal.uz](http://www.edu'ortal.uz), [www.multimedia.uz](http://www.multimedia.uz) - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumiy o'rta dasturlarini rivojlantirish markazi

[www.bimm.uz](http://www.bimm.uz) - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz

[www.gyu.uz](http://www.gyu.uz) - Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi:

[www.school.edu.ru](http://www.school.edu.ru) - Umumiy o'rta portalı (rus tilida) [www.alledu.ru](http://www.alledu.ru) - "Internetda ta'lim" portalı (rus tilida) [www.rostest.runnet.ru](http://www.rostest.runnet.ru) - Test olish serveri (rus tilida) [www.allbest.ru](http://www.allbest.ru) - Internet resurslari elektron kutubxonasi (rus tilida)

[www.mathty'e.narod.ru](http://www.mathty'e.narod.ru) - Online-darsliklar (rus tilida)

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi Hukumati portalı

[www.istedod.uz](http://www.istedod.uz) - "Iste'dod" jamg'armasi sayti

[www.edunet.uz](http://www.edunet.uz) - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti


[www.td'u.uz](http://www.td'u.uz) - Nizomiy nomidagi TDPU sayti

[www.zyonet.uz](http://www.zyonet.uz) - Ijtimoiy axborot ta'lim portalı

[www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz) - Ma'naviy-mahrifiy mavzudagi materiallar sayti

[www.e-adabiyot.uz](http://www.e-adabiyot.uz) - Adabiyotga oid sayt

O'zbek tilida kompetensiyalarning quyidagi turlari mavjud:



Nº	Maqsad va vazifalari	Uslug va yechimi	Kutiladigan natijalar
1	O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini shakllantirish	Muloqot darslari guruhlarda ishlash, berilgan matnlarga ijodiy yondashish	Nutq amaliyotining mazmuni va shakllarini to'g'ri belgilash, og'zaki va yozma nutqqa ijodiy yondashish

	<b>Maqsad va vazifalari</b>	<b>Uslug va yechimi</b>	<b>Kutiladigan natijalar</b>
<b>2</b>	<b>Noan'anaviy darslarning natijalarini tahlil qilish</b>	<b>Interfaol usullardan foydalanish, ekskursiya darslari, spektakl darslari.</b>	<b>o'zgalar fikriga hurmat, faoliik, jamoa bilan ishlash mahorati va imkoniyatlarini ko'rsatish, o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish</b>



## **ANNOTATSIYA**

Tadqiqotning asosiy maqsadi ta'limda til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammosini yoritib berishdan iborat.

Kompetensiyalarning fan va turmushga kirib kelishini yoritish. Hozirgi zamон o'qituvchisi kompetentligiga qo'yiladigan talablarni yoritish. Til ta'limiga oid kompetensiyalarning o'ziga xosligini aniqlash. Ona tili o'qituvchilarining kompetentligi darajasiga qo'yiladigan talablarni izohlash. O'quvchilarining til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini o'rGANISH. Ona tili o'quv fani bo'yicha shakllantirilishi zarur bo'lgan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni tahlil qilish. Til kopmetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.

## **ANNOTATION**

The main purpose of the research is to highlight the problem of the formation and development of language competence in education. Explaining the competence of science and marriage. Explaining the requirements for today's teacher qualifications. Explaining the peculiarity of language competency competences, explaining the requirements to the level of competence of the language teachers. Learn how to develop and develop student's language competence. Analysis of basic and sciences competencies that should be based on mother tongue teaching. Development of a system of tasks aimed at developing language competence.